

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

«Himoyaga tavsiya etilsin»

Tabiatshunoslik va geografiya fakulteti dekani

_____ dots. Xo`jamqulov B.

“ _____ ” _____ 2013- yil

TOSHPO`LATOVA AZIZA

**QASHQADARYO VILOYATIDA AHOLI DINAMIKASINING
GEOGRAFIK TAHLILI**

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar

dots. Abdullayev S.I.

**«Himoyaga tavsiya etilsin»
Geografiya kafedrası mudiri**

_____ dots. Janqobilov I.X.

« _____ » _____ 2013-yil

Qarshi – 2013- yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	2-5
-------------	-----

TUSHUNTIRISH QISMI

I BOB.	QASHQADARYO VILOYATI AHOLI GEOGRAFIASINING XUSUSIYATLARI.....	
I.1.	Viloyatdagi hozirgi geodemografik vaziyat.....	6-27
I.2.	Aholi tarkibi va mustaqillik yillarida unda sodir boʻlgan oʻzgarishlar.....	27-37
II BOB.	QASHQADARYO VILOYATI AHOLISINING JOYLANISHI.....	
II.1.	Aholi joylashuvining xususiyatlari.....	38-43
II.2.	Qishloq aholisi va uning tarkibidagi oʻzgarishlar..	43-52
II.3.	Shahar aholisi va uning tarkibidagi oʻzgarishlar...	52-65
	XULOSA.....	66-71
	Foydalanilgan adabiyotlar.....	72-74
	Ilovalar.....	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida demografik vaziyat va uning ijtimoiy - iqtisodiy oqibatlarini ko'p qirrali, dolzarb muammolardan biridir. Chunki bozor munosabatlarining markazida inson shaxsi, uning individual imkoniyatlari turadi. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohatlar va tub o'zgarishlar yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta'minlaydi. Jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanuvchi mazkur omil o'z navbatida uni rivojlantirish va taraqqiy ettirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bunday vaziyatda Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "...demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda odamlarni ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora – tadbirlarni oldindan amalga oshirish kerak"¹.

Hozirgi paytda mamlakatimizning barcha viloyatlaridagi kabi Qashqadaryo viloyatida ham bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish ishlari amalga oshmoqda. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi kabi keyingi yillarda viloyatda demografik (tarkiblari, aholi soni dinamikasi, zichligi, joylanishi, mehnat resurslari va b.) vaziyatda ham o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlarni o'rganish viloyatda demografik vaziyatning hozirgi holati va kelajakdagi rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq bilib olish imkoniyatini beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda demografiya va xususan aholi geografiyasi (demogeografiyasi) fanining rivojlanishiga Y.S.Timm, A.A.Shoroxova, M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, Z.N.Akramov, G.Asanov, T.E. Rayimov, A.Soliyev, O.Otamirzayev, M.R.Bo'riyeva, A.A.Qayumov,

¹ Karimov I.A. "O'zbekiston ijtimoiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lidan" T., "O'zbekiston", 1995, 11 bet.

M.Yangiboyev, O.Ubaydullayev, B.Boltayeva, P.Polvonov va boshqa ko'pgina olimlar katta hissa qo'shdilar.

Qashqadaryo viloyati aholisining geografik xususiyatlari M.Yangiboyev tomonidan ancha mukammal o'rganilgan. Hozirgi paytda viloyat aholisi geografiyasi P. Polvonov, M.Berdiqulova, D.S.Murodova va boshqa bir qator yosh tadqiqotchilar tomonidan aholi geografiyasining regional jihatlari o'rganilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning tadqiqot ob'yekti va predmeti. Ishning tadqiqot geografik ob'yektini Qashqadaryo viloyatining hududi, predmetini esa viloyat aholisi geografiyasi tashkil etadi. Unda viloyat aholisining dinamikasi va joylashuvining geografik jihatlari tahlil qilindi. Bitiruv malakaviy ishni bajarishda qiosiy-geografik, majmuiy-geografik metodlardan, tashkilotlarda to'plangan ma'lumotlardan va kartografik materiallardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadi va vazifalari. Qashqadaryo viloyati aholisi geografiyasiga bag'ishlangan mazkur bitiruv malakaviy ishning **asosiy maqsadi** viloyat aholisining shakllanishi va tarkibi hamda qishloq aholisi joylashuvining xususiyatlari bayov qilingan. Bu maqsadga erishish uchun ishda quyudagi **vazifalarni** yechishga harakat qilindi:

- viloyatdagi hozirgi geodemografik vaziyat;
- aholi joylashuvining regional xususiyatlari;
- shahar va qishloq aholi manzilgohlarining farqi va geografiyasi;
- mustaqillik yillarida shahar va qishloq aholisi

Bitiruv malakaviy ishdagi ilmiy yangiliklar va amaliy ahamiyati. Ishda Qashqadaryo aholisining xususiyatlari, uning dinamikasi, shahar va qishloq aholisi tarkibidagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Ishdagi ma'lumotlar sotsial va iqtisodiy geografiya kurslarini o'rganishda o'lkashunoslik materiallari sifatida hamda mustaqil ishlani bajarishda foydalanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ish mavzusi bo'yicha kafedraning iqtidorli talabalari seminarida, O'zMU iqtidorli talabalar, yosh olimlar va professor-o'qituvchilarning

ilmiy-amaliy konferensiyasida 2013-yil mart), Qarshi DU yosh olimlari va iqtidorli talabalarining konferensiyasida (2013) ma'ruza qilingan. O'zMUda "Ko'hna va navqiron geografiya" mavzusida o'tkazilgan konferensiya materiallarida "Qashqadaryo viloyatida aholi soni va zichligining o'zgarishi" va Qarshi DU "Fan, taraqqiyot va yoshlar" ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida "Qashqadaryo viloyatida tug'ilish jarayoni" mavzularidagi maqolalar chop etilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish "Kirish", "Tushuntirish qism" va "Xulosa"dan iborat bo'lib, tushuntirish qism ikki bob va besh banddan iborat. Bitiruv malakaviy ish kompyuter yozuvida 68 bet (kilobayt) dan iborat bo'lib, ishning tushuntirish qismi taqriban 1300 so'zda bayon qilingan. Bitiruv malakaviy ishga uning mazmumini ixchamroq bayon qilishga imkon beradigan 12 jadval, 2 rasm va kartosxema ilova qilindi. Bitiruv malakaviy ishini bajarishda Qashqadaryo viloyati aholisining muayyan jihatlari yoritilgan o'zbek va horijiy tillardagi adabiyotlar va kartografik manbalardagi ilmiy-nazariy va amaliy sajiyadagi masalalar o'rganildi va tahlil qilindi. Bitiruv malakaviy ishni bajarishda ish mavzusiga bevosita bog'liq bo'lgan o'zbek va horijiy tillardagi 54 nomdagi adabiyotdan, internet materiallaridan foydalanildi.

T U S H U N T I R I S H Q I S M

I BOB. QASHQADARYO VILOYATI AHOLI GEOGRAFIASINING XUSUSIYATLARI

1-1. Qashqadaryo viloyatidagi hozirgi demografik vaziyat

Mamlakatimiz istiqbolga erishgach, mustaqil taraqqiyot yo`lini tutgan har bir davlat oldida turgan asosiy vazifani - o`z xo`jaligini yangidan barpo etish va rivojlantirish hamda aholining moddiy ehtiyojlarini qondirish muammolarini hal eta boshladi. Bu vazifalarni bajarish uchun dastavval mamlakatning demografik vaziyatidagi mavjud ahvolni chuqur o`rganish va uning istiqbolda kutilayotgan o`zgarishlarni muntazam aniqlab berish lozim. Prezidentimiz I.A. Karimovning O`zbekistonning yangi iqtisodiy sharoitga o`tishdagi besh tamoyilining to`rtinchisida demografiya sohasidagi haqqoniy ahvolni hisobga olish muhimligi qayd etiladi.

Qashqadaryo viloyati 1920-yilning sentabr oyiga qadar Buxoro amirligi tarkibida bo`lgan. 1920-yilda Buxoro Respublikasi tashkil topgach, Qashqadaryo tarkibida Qarshi, G`uzor va Shahrisabz uyezdlari va 13 ta volost (kent) bo`lgan alohida viloyat sifatida uning tarkibiga kiritiladi. 1924-yil 1-noyabrda markazi Qarshi shahri bo`lgan alohida viloyati maqomiga ega bo`ldi. Hozirgi paytda rasmiy xujjatlarda 1926-yil Qashqadaryo viloyatining tashkil topgan yili deb beriladi. 1927-yil 17-fevraldan 1938-yil 15-yanvarigacha markazi Bekbudi (Qarshi) shahri bo`lgan okrug maqomiga ega bo`lgan, uning tarkibida 6 ta (Koson, Beshkent, Chiroqchi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog`, G`uzor va Tangiharam (Dehqonobod) tuman bo`lgan. 1938-yilda Buxoro viloyati tashkil etilgach Qashqadaryo okrug sifatida yana shu viloyat tarkibiga kiritildi. 1943-yil 20-yanvarda Qashqadaryo alohida viloyat sifatida qayta tiklandi. Keyinroq qisqa muddat (25.XII.1960-25.OI.1964) Surxondaryo viloyatiga qo`shib yuborildi. 1964-yil 7-fevraldan Qashqadaryo viloyati qayta tashkil etildi.

Qashqadaryo viloyati shimoli-g'arbdan Buxoro, janubi-sharqdan Surxondaryo, janubi – g'arb va g'arbdan Turkmaniston Respublikasining Lebap viloyati, sharqdan Tojikiston Respublikasining Panjakent tumani va Samarqand viloyati bilan chegaradosh. Qashqadaryo viloyatining maydoni 28,6 ming km² bo'lib, mamlakatimiz hududining 6,45% ini tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyati tarkibida 13 ta qishloq (Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Yakkabog', Qamashi, Qarshi, G'uzor, Shahrisabz va Chiroqchi) tumani, 12 ta shahar, 123 ta shaharcha, 148 qishloq fuqarolari yig'ini va 1046 ta qishloq mavjud (1-jadval).

1-jadval. Qashqadaryo viloyati bo'yicha ma'lumotlar
(umumiy ko'rsatkichlar)

Viloyatning tashkil etilgan vaqti	1926-yil
Hududiy maydoni, ming kv. km	28,6
Doimiy aholi soni (ming kishi)	2830,4
Shu jumladan: shahar aholisi	1225,2
qishloq aholisi	1605,2
Markazi - Qarshi shahri	
a) shaharlar soni	1
b) tunamanlar soni	13
shu jumladan:	
tumanga bo'y sunuvchi shaharlar:	11
Beshkent, G'uzor, Shahrisabz, Qamashi, Koson, kitob, Muborak, Yangi Nishon, Chiroqchi, Yakkabog', Tallimarjon	
Sahar tipidagi posyolkalar:	123

Hozirgi paytda mamlakatimizning barcha viloyatlaridagi kabi Qashqadaryo viloyatida ham bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish ishlari amalga oshirilmoqda, sanoat korxonalari xususiylashtirilmoqda, qishloq xo'jaligi yerlari dehqonlarga bo'lib berilib, fermer xo'jaliklari tashkil topmoqda. Viloyat infratuzilmasida – transport, savdo, sog'liqni saqlash, maorif, fan va madaniy sohalarda ham jiddiy ijobiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Keyingi yillarda Qashqadaryo viloyatida demografik vaziyat, ya'ni aholi sonining o'sishi, zichligi aholi manzilgohlari, ularning tiplari, mehnat resurslari va ulardan foydalanishda ham jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlarni o'rganish viloyatda

demografik vaziyatning hozirgi holati va kelajakda rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish va shunga mutanosib tadbirlarni belgilash imkoniyatlarini beradi. Demografik tahlilning ishonchliligi va to'liqligiga sotsial va iqtisodiy talablar, demografik jarayonlarga turli komponentlar ta'sirini ochib berish zaruriyati ularni o'zgarishning teran majmuasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Viloyat nisbatan yuqori demografik sig'imga ega. 2009-yil oxirida bu yerda 2589,6 ming kishi yoki mamlakatimiz aholisining 9,5%i istiqomat qilgan. Aholi soniga ko'ra Qashqadaryo viloyati mamlakatimizda Samarqand, Farg'ona va Toshkent viloyatlaridan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. 2013-yil 1-yanvar ma'lumotiga ko'ra, Qashqadaryo viloyatining aholisi 2830,4 ming kishi (shahar aholisi 1225,2 ming kishi, qishloq aholisi 1605,2 ming kishi) bo'lib, O'zbekiston viloyatlari orasida aholi soni jihatidan 4 o'rinda turadi.

Ma'lumki, O'zbekistonda 1926-, 1939-, 1959-, 1970-, 1989-yillarda aholi ro'yxati o'tkazilgan. Qashqadaryo viloyati aholisiga doir shu aholi ro'yxatlarining statistik ma'lumotlari va keyingi yillardagi ayrim demografik ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

1926-yilgacha o'tkazilgan aholi ro'yxatida Qashqadaryo viloyati aholisi to'g'risida ma'lumot yo'q. Chunki, Buxoro amirligi tarkibidagi viloyatlarda, shu jumladan Qashqadaryo viloyatida ham aholi ro'yxati o'tkazilmagan. Amirlik tasarrufidagi Qashqadaryo vohasida XIX asr o'rtalarida Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi, G'uzor bekliliklarida jami 500 ming kishi yashagan. XX asr boshlarida bekliliklar viloyatlar deb atalgan. 1920-yilda ma'muriy jihatdan viloyat, tuman va kentlardan iborat edi. M.Qoraxonovning (1965) retrospektiv tahlilga asoslangan tadqiqotlariga ko'ra, XX asr boshlarida hozirgi Qashqadaryo viloyati hududida taqriban 540 ming kishi yashagan bo'lib, ulardan 30 ming kishini shahar aholisi tashkil etgan.

1926-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryo viloyatining aholisi 343,5 ming kishini tashkil etgan. 1926–1939-yillar mobaynida viloyatda aholining umumiy soni 116,1 ming kishiga ko'paygan yoki aholining

yillik o'sishi 2,6% ni tashkil etgan. 1926 – 1939-yillarda viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining kam rivojlanganligi hamda chetdan keladigan aholi harakatining kam bo'lishi tufayli aholining yillik o'sish darajasi mamlakatdagiga nisbatan past bo'lgan. Pirovardida O'zbekiston umumiy aholisiga nisbatan Qashqadaryo viloyatining tutgan o'rnini 11,4% dan (1926) 9,9% ga (1939) kamaydi. Lekin, 1939-1959-yillarda viloyat aholi sonining yillik o'sish darajasi mamlakatimizdagiga nisbatan past bo'ldi. Chunki, shu davr mobaynida aholining bir qismi O'zbekistonning yangi yerlar o'zlashtirilayotgan viloyatlariga hamda qo'shni Tojikiston Respublikasiga ko'chirildi. Aholi bir qismining qo'shni viloyatlarga ko'chirilishi, shuningdek viloyatda sanoat ishlab chiqarishning kam taraqqiy etganligi va tog' oldi hududlarida xo'jalik rivojlanishining pastligi bilan ham bog'liq bo'ldi. 1939 – 1959-yillarda Qashqadaryo viloyatining aholisi atigi 48,4 ming kishiga ko'paydi. Aholi ko'payishining bu yillarda pasayishi urush yillaridagi tug'ilishning kamayishi va urushning oqibatlari bilan bog'liq.

1941-1945-yillarda urush tufayli Qashqadaryo viloyati aholisining tabiiy ko'payish sur'ati ham ancha pasaydi. Faqat 1950-yillardan boshlab tabiiy o'sish sur'ati bir muncha tezlashdi. 1959-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra viloyatdagi aholi 508,0 ming kishiga yetdi. Shu tufayli 1959-yilda aholi soni bo'yicha Qashqadaryo viloyatining O'zbekistondagi ulushi 6,5% ni tashkil etadi. Viloyat aholisining soni aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, 1979-yilda 1 120,4 ming, 1989-yilda 1 596,2 ming kishiga yetdi. Viloyat aholisining soni 1997-yilda 2,0 mln. kishidan oshdi va hozirgi paytda bu hududda 2671,0 mln. dan ziyodroq kishi istiqomat qiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, Qashqadaryo viloyatida aholi nufusi muntazam ravishda o'sib kelmoqda. Viloyat hududida aholining zichligini o'rganish muayyan hududni sotsial - iqtisodiy rivojlantirishni oqilona rejalashtirish va bashoratlantirishda muhim ahamiyatga ega. Zero, aholi zichligi bilan inson hayotining ko'pgina moddiy va ma'naviy sharoitlari chambarchas bog'liqdir.

Aholining hududiy taqsimlanishi muammosi aholining tabiiy o`lishi va tug`ilish muammolariga nisbatan ham muhimroqdir.

2-jadval.Qashqadaryo viloyati aholi soni va tarkibining tabiiy o`lishi

Yillar	Aholi soni (ming kishi)			% hisobiga	
	Jami	Shahar	Qishloq	Shahar	Qishloq
1926	343,5	39,1	304,4	11,4	88,6
1939	459,6	40,8	418,8	9,9	91,0
1959	508,0	67,4	440,6	13,2	86,8
1960	527,7	72,1	455,6	13,7	86,3
1965	658,0	92,5	565,5	14,0	86,0
1966	675,9	97,6	578,3	14,4	85,6
1967	701,4	104,4	597,0	14,8	85,2
1968	730,2	114,0	616,2	15,6	84,4
1969	762,6	127,0	635,0	15,4	84,6
1970	802,0	133,0	669,0	16,5	83,5
1976	972,2	196,2	776,0	20,6	79,4
1977	1003,4	201,9	801,9	21,2	78,8
1978	1037,2	251,1	776,1	23,5	76,5
1979	1120,4	282,4	838,0	25,3	74,7
1989	1596,2	415,2	1181,0	26,0	74,0
1990	1646,9	436,2	1210,7	26,5	73,5
1991	1697,7	445,8	1251,9	26,3	73,7
1995	1917,9	492,0	1426,3	25,6	74,4
2000	2170,2	554,4	1615,8	25,4	74,6
2004	2339,7	582,8	1756,9	24,9	75,1
2006	2423,7	600,6	1823,1	24,7	75,3
2008	2509,4	616,5	1892,9	24,6	75,4
2009	2563,6	1116,8	1446,8	43,5	56,5
2010	2616,0	1135,6	1480,4	43,4	56,6
2011	2671,0	1158,2	1512,8	43,3	56,6
2013	2830,4	1225,2	1605,2		

1959-1970-yillarda viloyatda aholi sonining ko`payishi ancha yuqori bo`ldi. Qashqadaryo aholisining shakllanishiga tug`ilishning nisbatan yuqoriligi hamda boshqa viloyatlardan keladigan aholi harakati ham sabab bo`ldi. Natijada viloyat aholisi 508 ming kishidan (1959) 802 ming kishiga (1970) yetdi. Aholining o`rtacha yillik o`lishi 4,9% ni tashkil etdi. 1959-1970-yillarda aholi ro`yxatiga binoan viloyat aholisining soni 57,6% ga ko`paydi. Aholi sonining bunday tez

surʼatlar bilan oʻsishida tabiiy koʻpayish bilan bir qatorda mexanik koʻpayish taʼsir koʻrsatdi.

Qashqadaryo viloyatida aholi sonining koʻpayishi bilan uning geografik taqsimlanishi va zichligi ham oʻzgardi. Viloyat tabiiy geografik muhitiga mos holda aholi uning hududida bir tekis joylashmagan. 1926-yilda aholining oʻrtacha zichligi har 1 km² maydonga 12 kishini tashkil etgan boʻlsa, 1991-yilda bu koʻrsatgich 59,8 kishini, 2006-yilda 58,8 kishini, 2009-yilda esa 90,5 kishini tashkil etdi (mamlakatimizda aholining oʻrtacha zichligi 2009-yilda har 1 km² ga 61,3 kishi)ni, 2011 yilda 93,4 kishini tashkil qilgan. Aholi zichligi viloyatning barcha tumanlarida bir xil emas (3–jadval).

Aholining oʻrtacha zichligi Kasbi tumanida har 1 km² ga 220,7 kishi, Qarshi tumanida 220,2 kishidan ziyodroq boʻlib, Shahrisabz tumanida 180,2 kishini, Yakkabogʻ tumanida 165,6 kishini, Koson tumanida 128,1 kishini, Kitob tumanida 121,3 kishini tashkil etadi. Ayni paytda Dehqonobod tumanida aholining oʻrtacha zichligi har 1 km² ga 30,0 kishini, Mirishkor tumanida 31,0 kishi, Muborak tumanida 22,8 kishiga toʻgʻri keladi. Albatta, bu koʻrsatgichlar oʻrtacha koʻrsatgichlar boʻlib, haqqoniy ahvolni aniq ifodalay olmaydi. Viloyatning Shahrisabz va Kitob tumanlarining tekislik qismida aholining oʻrtacha zichligi har 1 km² ga 250 kishidan ziyodroq boʻlgani holda Muborak tumanida uning maʼmuriy markazining yer maydoni va aholisi hisobga olinmagan taqdirda aholining oʻrtacha zichligi atigi 12,6 kishini tashkil etadi.

Azaldan sugʻorilib dehqonchilik qilinadigan Qarshi, Kasbi, Shahrisabz, Yakkabogʻ, Kitob tumanlarida aholi nisbatan zich joylashgan. Togʻli va choʻl yerlarda aholi siyrak joylashgan. 70-yillardan boshlab viloyatning Nishon, Mirishkor, Koson tumanlarida yangi yerlarni oʻzlashtirilishi munosabati bilan chetdan koʻchib kelganlar hisobiga aholi zichligi ancha oshdi. Hozirgi paytda viloyatda Muborak, Mirishkor, Dehqonobod tumanlarida hamda Qamashi, Chiroqchi, Gʻuzor tumanlarining yaylov qismlarida aholi siyrak joylashgan.

Chunki yaylov hududlarida faqat chorvachilik bilan bog`liq bo`lgan aholigina yashaydi.

Aholi – tug`ilish va o`lim jarayoni natijasida mavjud bo`lgan avlodlar almashuvi yig`indisidir. Har bir fanning vazifasi tabiat va jamiyatning ma`lum qismidagi rivojlanish qonunlarini o`rganish bilan bir qatorda o`ziga xos amaliy ahamiyatga ega bo`lgan vazifalari ham mavjud. Inson mavjudligini ta`minlovchi barcha demografik jarayonlar (tug`ilish, o`lim, nikoh, ajralish) uning hayotidagi muayyan davrida, ya`ni ma`lum yoshida ro`y beradi. Demografiyada mazkur vazifalarni V.A. Borisov (1999) fikricha, 3 guruhga bo`lib o`rganish maqsadga muvofiqdir. Ular orasida demografik jarayonlar va ularning omillarini o`rganish eng muhim masaladir. Demografik jarayonlarga *tug`ilish, o`lim, nikoh, ajralish* va *oila* kiradi. Inson mavjudligini ta`minlovchi barcha demografik jarayonlar uning hayotidagi muayyan davrida, ya`ni ma`lum yoshida ro`y beradi. Demografik jarayonlarni o`rganishda shu jarayonlarni aks ettiruvchi maxsus ma`lumotlardan foydalaniladi. Bu ma`lumotlar **demografik ma`lumotlar** deb ataladi va ularga aholi va demografik jarayonlarga oid nashr etilgan ma`lumotlar, ilmiy manbalar, maxsus tadqiqot natijalari kiradi. Demografik jarayon ijtimoiy va milliy omillar bilan bir qatorda jamiyat taraqqiyotining g`oyat muhim omillaridan biridir. Binobarin, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va aholi sonining o`sishi o`rtasida ziddiyat yoki nomuvofiqlik yuzaga kelganda demografik muammolar keskinlashadi.

Ma`lumotlarga ko`ra, O`zbekistonda demografik jarayonlar islohotlar boshlangandan buyon o`zgarmoqda va kelgusida keskin o`zgarish bashorat qilinmoqda.

Demografik jarayonlar iqtisodiyotda mehnat resurslarini shakllantirishda asosiy ahamiyatga ega va aholining ish bilan bandligini oshirishga yordam berishi mamlakatda kichik va o`rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini rag`batlantirish hamda mehnat bozorini barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, mamlakatda demografik jarayonlar va chora-tadbirlar ijtimoiy-iqtisodiy sohaning rivojlanishiga mos kelmasa, kutilgan natijani bermaydi, ya'ni demografik jarayonlarni barqarorlashtirish va aholi bandligini ta'minlash, mehnat resurslarining sifati va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida ish bilan bandlik tarkibida katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlarni, umuman olganda xo'jalik yuritishning bozor iqtisodiyotiga o'tish paytida iqtisodiyot tizimlarini qayta tashkil qilganligini keltirib chiqaradi.

Tug'ilish. Demografik jarayonlar tarkibida *tug'ilish* alohida ahamiyat kasb etadi. Demografik tadqiqotlarda tug'ilish alohida, aholi takror barpo bo'lishining demografik zamini sifatida o'rganiladi, unga ta'sir etuvchi barcha ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy omillar tahlil etiladi.

Kishilarning moddiy, maishiy turmushning hamda sog'liqni saqlash ishlarining yaxshilanishi tufayli o'lim keskin kamayib, aholi sonining tabiiy o'sish sur'ati ancha tezlashdi.

Mamlakatimizda aholi muntazam ravishda turli sur'atlarda ko'payish tendensiyasiga ega. Butun mamlakatimizda va uning mintaq va viloyatlarida aholi ko'payishining asosini tug'ilish tashkil etadi.

O'zbekistonda 1989-yil tug'ilish har ming aholiga 33,3 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2002-yil bu ko'rsatkich 21,0 % ga tushib qoldi, bu yillarda tug'ilish darajasi 12,3% ga kamaydi. Viloyatlar bo'yicha ham tug'ilish koeffitsiyentining kamayganligini ko'rish mumkin. Masalan, tug'ilish darajasi doimo yuqori bo'lib kelgan Surxondaryo (41,5%) va Qashqadaryo (40%) viloyatlarida ham bu holat ayni paytda birmuncha pasaydi.

Keyingi yillarda O'zbekistonning barcha viloyatlarida tug'ilish darajasining qisqarishi tabiiy ko'payishning pasayishiga sabab bo'lmoqda. 1989-yilda mamlakatda tabiiy ko'payish 27,0% ni tashkil etgan bo'lsa, 2003-yilda esa bu

ko'rsatkich 14,5% ga teng bo'ldi. Bu yillarda tabiiy ko'payish darajasi 12,5% ga kamaygan. Bunday holat Qashqadaryo viloyati uchun ham xos (18,7%).

Qashqadaryo viloyati tumanlarida aholining tug'ilish ko'rsatkichlari har 1000 kishiga 25,0 kishidan (Yakkabog' tumani) 28,0 kishigacha (Chiroqchi tumani) o'zgaradi (-jadval).

Qashqadaryo viloyatida 1989–2010-yillarda tug'ilishning kamayishi kuzatildi. Mazkur yillarda tug'ilishning kamayish tezligi o'rtacha yiliga 1,07 punktni tashkil etadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, viloyatda tug'ilish darajasi yuqori bo'lishiga qaramasdan, uning kamayish sur'ati boshqa viloyatlarga nisbatan ildamroq kechmoqda.

Mavjud statistik ma'lumotlarning tahlili asosida aholi tabiiy harakatining hududiy xususiyatlariga ko'ra O'zbekiston viloyatlarini uch guruhga–tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan (17,0% dan ortiq) hududlarga (Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax), tug'ilish ko'rsatkichi o'rtacha bo'lgan (15,0 – 17,0%) Buxoro, Sirdaryo, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi va tug'ilish darajasi past (15,0% dan kam) bo'lgan hududlarga (Navoiy, Farg'ona, Andijon va Toshkent viloyatlari) ajratish mumkin. Demak, bu ko'rsatkich bo'yicha Qashqadaryo viloyati hozirgi paytda mamlakatimizda “yetakchilik” qilmoqda.

3-jadval. Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari aholisining tug'ilish ko'rsatkichlari (har 1000 kishiga nisbatan)

№	Tumanlar	1995	2000	2005	2010
1	Dehqonobod	36,5	27,9	21,9	25,2
2	Kasbi	38,4	28,8	23,8	25,0
3	Kitob	35,8	28,3	22,1	27,2
4	Koson	39,9	28,1	23,1	27,1
5	Mirishkor	46,3	25,5	21,3	23,9
6	Muborak	37,7	30,7	23,2	26,1
7	Nishon	35,8	27,0	21,9	27,0
8	Yakkabog'	35,5	27,2	22,4	25,0
9	Qamashi	43,5	27,3	23,5	25,7
10	Qarshi	34,2	24,7	21,8	26,0
11	G'uzor	39,8	28,1	22,2	25,0
12	Shahrisabz	34,7	24,6	18,4	21,1
13	Chiroqchi	41,5	33,8	28,0	28,0

Qashqadaryo viloyatida ham mamlakatimizning boshqa viloyatlaridagi kabi tugʻilish darajasi qishloqlarda shaharlardagiga nisbatan yuqori. Tugʻilish darajasi 1996-yilda 33,1%, 2003-yilda 23,5%, 2009-yilda 24,3%, 2010-yilda 24,9% ni tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyati hozirgi kunda ham tugʻilish koeffitsiyentining yuqoriligi bilan mamlakatimizda oldingi oʻrinlarni egallab kelmoqda. Bunga asosiy sabab, aholisining asosiy qismini qishloqlarda yashashi, shaharlashuv jarayonining sust borishi, aholining jinslar orasidagi farqning kamligi, migratsion jarayonning oʻta sustligi va boshqa demografik holatlar sabab boʻlmoqda. Ammo, butun mamlakatdagi kabi Qashqadaryo viloyatida ham tugʻilish va tugʻish yoshi koeffitsiyenlarining kamayish tendensiyalari kuzatiladi. Shuningdek, tugʻilgan bolalarning asosiy qismi nisbatan yosh ayollarga toʻgʻri keladi.

Oʻlim. Oʻlim jarayoni ham aholi takror barpo boʻlishining asosiy elementi sifatida qaraladi. Aholi takror barpo boʻlishiga oʻlim koʻrsatkichlari maʼlum darajada taʼsir koʻrsatadi. Barcha tirik mavjudotlar singari inson ham oʻlimdan qocha olmaydi, vaqti-soati bilan barcha organizmlar nobud boʻladi va oʻrmini yangilari toʻldiradi. Umuman aholi oʻlimi biologik va ijtimoiy jarayonlardir. Bu holatni keltirib chiqaradigan bir qancha omillar va sabablar mavjud. 1972-yil Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Oʻlim holatini tahlil qilishni xalqaro hisoboti”da: a) biologik; b) demografik; v) ijtimoiy va iqtisodiy; g) madaniy; d) siyosiy omil oʻlimning asosiy omillari sifatida tavsiflangan.

Aholiga tibbiy yordam koʻrsatishning yaxshilanishi, sogʻliqni saqlash tizimida yangi islohotlar va texnologiyalarning joriy qilinishi, shubhasiz oʻlim holatining kamayishiga olib keladi.

Oʻzbekistonda oʻlim koʻrsatkichi mintaqalar boʻyicha turlicha. Buning oʻziga xos sabablari bor. Jumladan, mamlakatda 1989-yilda oʻlim koeffitsiyenti 6,3% ni tashkil etgan boʻlsa, 2004-yilda bu koʻrsatkich 5,0% ga tushdi, yaʼni oʻlim holati bu davrda 1,3% ga qisqardi. Oʻzbekistonning viloyatlari darajasida qaralganda deyarli viloyatlarda oʻlim koeffitsiyenti kamayish tendensiyasiga ega.

Qashqadaryo viloyatida o`lim koeffitsiyenti 1996-yilda 5,2%, 1997-yilda 4,63%, 2003-yilda esa 4,1%, 2004-yilda 4,0 % bu ko`rsatkich shaharlarda 5,0%, qishloqlarda 5,3%, 2003-yilda 4,4% va 2010-yilda 3,9% ni tashkil etdi (4-jadval). O`lim darajasiga ko`ra Qashqadaryo viloyati o`lim holati past bo`lgan hududlarga (5,0 % dan kam) kiradi.

Statistik ma`lumotlarning tahlili boshqa mintaqalarga nisbatan eng kam o`lim Qashqadaryo viloyatiga to`g`ri keladi. Qashqadaryo viloyatida ham tug`ilish va tug`ish yoshi koeffitsiyentining kamayishi kuzatiladi. Shuningdek tug`ilgan bolalarning asosiy qismi nisbatan yosh ayollarga to`g`ri keladi.

Tug`ilishning ancha yuqori darajada saqlanib turishi bilan bir qatorda aholining moddiy va madaniy turmush darajasining o`sishi, tibbiy xizmatning yaxshilanishi tufayli aholi o`rtasidagi o`lim darajasi kamaydi.

4-jadval. Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari aholisining o`lim ko`rsatkichlari (har 1000 kishiga nisbatan)

№	Tumanlar	1995	2000	2005	2008	2009	2010
1	Dehqonobod	5,6	4,9	4,3	4,1	3,5	3,8
2	Kasbi	5,3	4,2	4,7	4,3	3,5	4,0
3	Kitob	5,1	4,3	4,2	4,2	3,9	3,9
4	Koson	4,4	4,0	3,9	4,1	4,0	3,5
5	Mirishkor	6,6	4,3	3,8	4,1	3,3	3,8
6	Muborak	5,4	4,8	3,5	4,0	3,7	4,2
7	Nishon	3,3	2,8	3,6	4,2	3,2	3,6
8	Yakkabog`	6,2	4,1	4,3	4,2	4,2	4,0
9	Qamashi	6,0	4,4	4,2	4,0	3,9	4,4
10	Qarshi	5,3	4,2	4,7	4,3	4,0	3,8
11	G`uzor	5,4	4,8	4,3	5,0	4,4	4,4
12	Shahrisabz	4,5	4,4	4,0	4,3	4,2	3,9
13	Chiroqchi	5,3	4,5	3,9	4,2	3,6	3,6

Oila. Aholining takror barpo bo`lishida birinchi navbatda oilaning tashkil topishi, ya`ni shakllanishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki, dunyoda tug`iladigan insonlarning aksariyati oilada, oila muhitida dunyoga keladi, shaxs sifatida shakllanib, o`zining demografik faoliyatini (oilaga qurishni, farzandlar

ko`rishni) boshlaydi. Oilaning shakllanishi esa o`z navbatida nikoh va ajralish jarayonlari bilan chambarchas bog`liqdir. Ajralish, ya`ni nikohning bekor etilishi ham aholi takror barpo bo`lishiga ta`sir etuvchi demografik jarayon hisoblanadi.

Demografiyada oila asosida ijtimoiy-demografik guruh sifatida o`rganiladi. Oilani jamiyat taraqqiyoti davomidagi o`rni, tarixiy rivojlanishi, aholining takror barpo bo`lishidagi asosiy faoliyati va uning o`zgarib borish omillari va oqibatlari o`rganilib, kelajakda rivojlanishining asosiy yo`nalishlari aniqlanadi. Aholining takror barpo bo`lishida birinchi navbatda oilaning tashkil topishi, ya`ni shakllanishi muhim ahamiyatga egadir. Chunki, dunyoda tug`iladigan insonlarning aksariyati oilada, oila muhitida dunyoga keladi, shaxs sifatida shakllanib, o`zining demografik faoliyatini (oila qurishni, farzandlar ko`rishni) boshlaydi. Oilaning shakllanishi esa o`z navbatida nikoh va ajralish jarayonlari bilan chambarchas bog`liqdir. Ajralish, ya`ni nikohning bekor etilishi ham aholi takror barpo bo`lishiga ta`sir etuvchi demografik jarayon hisoblanadi.

Aholi migrasiyasi. Demografik jarayonlar orasida aholining bir joydan ikkinchi joyga ko`chish – migrasiya jarayoni ham aholi harakatida muhim omil hisoblanadi. Aholining makondagi hududiy harakati ham ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog`liq.

Hozirgi paytda aholining davlat chegarasidan yoki ma`lum bir hududiy tuzilma chegarasidan tashqariga yoki ichkarisiga o`tib o`z yashash joyini o`zgartirish bilan bog`liq harakti **migratsiya** deb tushuniladi. Shu bois migratsiyaning birinchi belgisi mamlakat, viloyat va tumanning, aholi yashaydigan ma`muriy-hududiy chegarani kesib o`tish bilan bog`liq ravishda o`z yashash joyini almashtirishdir. Bu jarayon migratsion oqilarni yuzaga keltirib, ayrim hududlarda aholining ko`payishiga va aksincha ayrim hududlarda kamayishiga olib keladi.

Migrasiyani tasnif qilishning asosiy mezonlariga: uning tashkiliy darajasi, sabablari, doimiy yoki vaqtinchaligi kabi belgilari mansub.

Migratsiya oqimlarining yo`nalishlariga qarab **ichki** va **tashqi** migratsiya farqlanadi. **Tashqi migratsiya**-bu aholining chegaradan tashqariga chiqib ketishi

(emigratsiya)ni bildirsa; **ichki migratsiya**, aksincha, aholining ushbu davlat yoki hudud chegarasidan o'tib, ko'chib kelishi (immigratsiya)ni bildiradi.

Iqtisodiy rivojlangan, turmush darajasi yuqori bo'lgan AQSH, GFR va boshqa mamlakatlar uchun tashqi migratsiya aholi va mehnat resurslarini ko'paytirishning muhim manbai hisoblanadi. Ichki migratsiya har bir mamlakat, hudud ichidagi migratsion jarayonlarni bildiradi. Bunday migratsiya 3 turga bo'linadi: viloyat ichidagi migratsiya, viloyatlararo migratsiya, iqtisodiy-geografik mintaqalararo migratsiya.

Aholi yashaydigan joylar o'rtasida ko'chib yurish nuqtai-nazaridan: qishloqdan-qishloqqa (asosan kichikroq aholi manzilgohlaridan yirikroq aholi manzilgohlariga ko'chib (yurib) yurishni bildiradi); Qishloqdan-shaharga: bunda harakatning asosiy yo'nalishi bir tomonlama bo'lib, mayda shahar va shaharchalardan, murakkab infratuzilmaga ega bo'lgan, sanoati yuksak rivojlangan shaharlarga ko'chib o'tishni anglatadigan migratsiyaga ajratish mumkin.

Kichik shaharchalar aholining qishloqdan yirik va o'rta shaharlarga ko'chib o'tishda qo'nalg'a, oraliq joy bo'lib xizmat qiladi.

Aholining tub joylik, mahalliy va yangi kelganligi nuqtai-nazaridan migratsiyaning quyidagi turlarini ajratishadi: 1) ilgaridan yashab kelayotgan tub aholining o'zi tug'ilib o'sgan joyini tashlab, boshqa mintaqalarga (tumanlarga) ko'chib ketishi bilan bog'liq migratsiya va 2) yangi ko'chib kelganlar migratsiyasi. Amalda bu aholining turli toifalarga ya'ni doimiy va mavjud aholiga xos migratsiyasidir.

Agar ko'chib kelganlar shu yerda 2 yildan ortiq yashab qolsalar, ularni moslashib yashab ketganlar toifasiga kiritishadi. Tashkiliy jihatdan migratsiyaning **maxsus tashkil qilingan** va **tashkil qilinmagan** turlarini ajratish mumkin. Tashkiliy migratsiya aholini reja asosida hududlarga joylashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlardan samarali foydalanishni bildiradi.

Tashkiliy migratsiya g'arazli maqsadlarda zo'ravonlik yo'li bilan amalga oshirilishi ham mumkin.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Qrim tatarlari, Mesxiti turklari, koreyslar va boshqa millat vakillarining o'zlari yashab turgan joylaridan ko'chirilib, boshqa mintaqalarga tarqatib yuborilishi bunga misol bo'lishi mumkin. AQShda irqchilik avj olgan paytlarda indeyslarning o'z joylaridan ko'chirilib, yashash uchun noqulay bo'lgan hududlarga siqib chiqarilishi ham bunga misol bo'la oladi.

Tashkil qilingan migratsiyaning asosiy turlari quyidagilardan iborat: 1) jamoatchilik chaqiruvchiga binoan, masalan, yangi yerlarni o'zlashtirishga; 2) ishchi kuchini tashkiliy ravishda ishga qabul qilinishi, masalan janubiy Koreyada ishlashga boruvchilar; 3) xizmat yuzasidan boshqa tuman va mintaqalarga ishga o'tkazilishi; 4) oliygohlar va kollejlarning bitiruvchilarini taqsimlash yo'li bilan boshqa joylarga jo'natilishi.

Tashkil etilgan yoki individual migratsiya, aholining o'z ixtiyori bilan yangi joyda o'z moddiy ahvolini yaxshilash maqsadida ko'proq daromad topish istagi; o'z malakasini oshirish yoki ma'lumot olish istagi; o'z faoliyat turini almashtirish ishtiyoqi; yangi ishga o'tish istagi va boshqalar bilan bir qatorda, aholiga maishiy va madaniy xizmatlar ko'rsatish darajasi yuqori bo'lgan tumanlarga ko'chib o'tish istagi, oilaviy holatlar, masalan, turmush qurish, eri yoki xotini, yohud farzandlari va hatto qarisdosh-urug'lari yoniga ko'chib o'tish holatlari sababli ham ro'y berishi mumkin.

Tashkil etilmagan migratsiyani ham davlat tomonidan boshqarish mumkin. Buning uchun ishlab chiqarish quvvatlarini oqilona joylashtirish bunda erkak va ayol mehnat resurslarining bir-biriga mutanosib kelishini hisobga olish, ko'chib o'tish jarayonida moddiy yordam ko'rsatish yuklarini tashish, bir martalik yordam ko'rsatish va boshqalar orqali hamda ko'chib kelingan, joyda o'rnatib qolish uchun uy-joy, maktabgacha ta'lim bolalar muassasalari, ish haqiga ustamalar va boshqa choralarni qo'llash talab qilinadi.

Aholining tashkiliy va tashkil etilmagan migratsiyasi ishchi kuchini tumanlararo qayta taqsimlash yo'li bilan mehnat resurslarini bir tekisda

joylashtirish va bunda moddiy ishlab chiqarish sohasi tarmoqlarini rivojlantirish ehtiyojlari hisobga olinmog'i lozim.

Yuqoridagilarga asoslanib aholi migratsiyasini ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Ixtiyoriy migratsiya;
2. Majburiy turga ajratish migratsiyasi.

Ko'chib o'tish va joylashish muddatiga qarab aholini migratsiyasini qaytib kelmaydigan, ya'ni yashash joyini butunlay o'zgarishi bilan bog'liq aholi migratsiyasiga; vaqtincha (2-3 yilga) (pikmigratsiya) turiga, mavsumiy va mokisimon-borib keluvchi migratsiya turiga ajratish mumkin.

Mokisimon migratsiyasiga-osma soat kafkiriga o'xshab muntazam borib keluvchi aholi migratsiyasini tushunish mumkin. Bunga muntazam ravishda, doimiy tarzda har kuni yoki har hafta ishga, o'qishga, davolanishga, madaniy-maishiy tadbirlarga o'zi yashab turgan joy, shahar, viloyatdan tashqarga borib-kelishini ko'rsatish mumkin.

Mokisimon migratsiya mehnat resurslarini shakllantirishning muhim manbai, aholi ijtimoiy harakatchanligi kasbiy rivojlanishining, shahargacha yashash tarzini tarqalish va shu asosda shahar, viloyatdan tashqariga borib-kelishini ko'rsatish mumkin.

Mokisimon migratsiya mehnat resurslarini shakllantirishning muhim manbai, aholi ijtimoiy harakatchanligi kasbiy rivojlanishining, shahargacha yashash tarzini tarqalish va shu asosda shahar va qishloq o'rtasida tafovvtlarni bartaraf qilishning muhim omilidir. Lekin, mokisimon migratsion aholining yashash joyi o'zgarmasdan qoladi. Hududiy ko'chib yurishlarning ushbu shakli asosida, ishlab chiqarish quvvatlari va aholini ayniqsa mehnat resurslarini joylashtirish o'rtasidagi nomutanosibliklar sabab bo'ladi. Maorif, sog'liqni saqlash, fan, madaniyat muassasalarining joylashtirilishidagi nomutanosibliklar ham sabab bo'lishi mumkin. Bunday migratsiyaning asosiy kamchilik, odamlar yo'qotadigan vaqt va mablag' hisoblanadi.

Agarda mokusimon migratsiyaning qarama-qarshi oqimlaridan iboratligini inobatga olinsa va uni hisobga olish yo`li bilan bartaraf etmagan taqdirda ham yumshatish choralari ko`rinsa katta iqtisodiy samaraga ega bo`lish mumkin.

Birinchidan tejalgan vaqt hisobiga jamiyat a`zolari qo`shimcha moddiy va ma`naviy boylik yaratishlari mumkin bo`lsa; ikkinchidan borish-kelish bilan bog`liq sarf harajatlar qisqarishiga evaziga ham jamiyatning ancha moddiy resurslari tejaladi.

Barcha migratsion jarayonlar o`z rivojida 3 bosqichni bosib o`tadi:

Birinchii bosqich potensial bosqich bo`lib, bunda aholi o`z joyini almashtirishga tayyorgarlik ko`radi;

Ikkinchi bosqich migratsiyaning o`zidan, ya`ni ko`chib o`tish va joylashuv jarayonidan iborat;

Uchinchi bosqich ko`chib kelgan aholining yangi joyga moslashuvi davridan iborat.

Mavjud statistika ma`lumotlarida faqat ikkinchi bosqich – ya`ni bevosita migratsiya jarayoni hisobga olinadi xolos. Birinchi va uchinchi bosqichlarni turli ilmiy-tadqiqot, loyiha va jamoatchilik institutlari, laboratoriyalar tomonidan maxsus tadqiqotlar o`tkazish yo`li bilan o`rganish mumkin.

Ayrim mamlakatlardagi ichki va tashqi migratsiya sabablarini quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy sabablar: - ish qidirib, yangi yerlarni qidirib, turmush tarzini o`zgartirish va boshqa maqsadlardagi migratsiya, ya`ni bu migrantlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini o`zgartirish bilan bog`liq sabablar;

2. Siyosiy sabablarga: - siyosiy, diniy, irqiy kamsitilishlar tufayli yoki harbiy evakuatsiya, reevakuasiya, deportatsiya kabi sabablar;

3. Tabiiy sabablar: - tabiiy shart-sharoitlarning o`zgarishi, iqlim, yer tuzilishi va boshqa sabablar;

4. Shaxsiy sabablar.

Migratsiyaning bosh funksiyasini ham shunda, ya`ni aholining ma`lum darajadagi harakatchanligini ta`minlash yo`li bilan uning hududiy qayta taqsimlanishiga erishishdir. Bu esa aholining har taraflama rivoji uchun muhimdir.

Aholi migratsiyasi ko`chib kelgan hududning ham ko`chib ketgan hududning ham demografik vaziyatga mehnat resurslari va aholining milliy tarkibida o`zgarishlarga sabab bo`ladi. Migrantlar oqimi, shuningdek, aholining yosh-jinsiy tarkibida ham o`z aksini topadi. Buning natijasida mehnat resurslarining ortishi yoki kamayishi sodir bo`ladi.

O`zbekistonda va uning mintaqalarida mustaqillik yillarida aholi migratsiyasida tub o`zgarishlar sodir bo`ladi. Yangi mustaqil davlatlarning tarkib topishi natijasida O`zbekistonda istiqomat qiladigan ayrim millat vakillari tarixiy vatanlariga qayta boshladilar. Shuningdek, O`zbekistonning turli mamlakatlar bilan xalqaro aloqalarining kuchayishi tufayli boshqa mamlakatlarga tub aholi vakillarining (o`zbeklarning) mehnat migratsiyasi kuchayib bormoqda (4-ilova). Bu jadvalda 2003-yilda O`zbekistonda va Qashqadaryo viloyatida aholi migratsiyasining holati ifodalangan. Bu davrda O`zbekistonda ham, viloyatda ham migratsiyaning saldosi manfiy bo`lgan. Qashqadaryo viloyatidan O`zbekistonning boshqa mintaqalariga (4629 kishi) va mamlakatlarga (1479 kishi) jami 6108 kishi migratsiya qilingan. Ayni paytda viloyatda O`zbekistonning mintaqalaridan (2612 kishi) va boshqa mamlakatlardan (163 kishi) 2775 kishi kelgan. Provardida ko`rsatgichlari bo`yicha migratsiya saldosi manfiy bo`lgan, ya`ni migratsion o`sish koeffisiyenti (1000 kishi hisobiga) -1,4 kishini, migratsion o`sish esa - 1 878 kishini tashkil etgan.

Shunday qilib, **migratsiya** ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylashtirilishi, ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyatlari, ishchi kuchini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayoni, uning taqsimlanishi, aholining joylashuvi, urbanizatsiya jarayoni, aholining ijtimoiy harakatchanligi, tabiiy harakati va uning tuzilishi bilan bog`liq ravishda kechadigan jarayondir. Mana shu aloqadorliklarni o`rganish migratsiya mexanizmini o`rganish imkonini beradi.

Umuman jamiyat taraqqiyotida migratsiyaning roli ijobiydir. U ishchi kuchidan samarali foydalanish maqsadida yangi o`zlashtirilayotgan joylarga va tarmoqlarga qayta taqsimlash orqali, migrantlarning iqtisodiy-ijtimoiy ahvolini o`zgartirish bilan birga, ular ko`chib ketgan joyda qolgan aholi turmushiga ham ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Migratsiyaning bosh funksiyasini ham shunda, ya`ni aholining ma`lum darajadagi harakatchanligini ta`minlash yo`li bilan uning hududiy qayta taqsimlanishiga erishishdir. Bu esa aholining har taraflama rivoji uchun muhimdir.

Aholi migratsiyasi ko`chib kelgan hududning ham ko`chib ketgan hududning ham demografik vaziyatga, mehnat resurslari va aholining milliy tarkibida o`zgarishlarga sabab bo`ladi. Migrantlar oqimi, shuningdek, aholining yosh-jinsiy tarkibida ham o`z aksini topadi. Buning natijasida mehnat resurslarining ortishi yoki kamayishi sodir bo`ladi.

5-jadval. Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlari aholi migratsiyasi
(har ming kishiga nisbatan, ‰)

	Shahar va tumanlar nomi	2007			2008		
		kelganlar	ketganlar	migratsiya	kelganlar	ketganlar	migratsiya
1	Dehqonobod	4	4	0	6	4	2
2	Kasbi	1	2	-1	1	1	0
3	Kitob	3	4	-1	5	4	1
4	Koson	1	2	-1	3	2	1
5	Mirishkor	3	3	-1	5	1	3
6	Muborak	5	6	-1	8	9	-1
7	Nishon	5	6	0	8	5	3
8	Chiroqchi	1	3	-2	2	2	0
9	Shahrisabz	2	4	-1	5	3	2
10	Yakkabog`	1	2	-1	2	3	-1
11	Qamashi	3	3	0	4	3	1
12	Qarshi t.	2	3	0	4	4	0
13	G`uzor	1	5	-4	3	2	1
14	Qarshi sh.	8	6	2	10	8	2

Aholining yosh – jinsiy tarkibi. Aholining yoshi va jinsiy tarkibini o`rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Butun mamlakat va uning ayrim mintaqalari, viloyatlari, tumanlari, aholisining yoshi va jinsiy tarkibini aniq bilish mehnat resurslarining sonini hisoblab chiqishga, uning hozirgi soniga emas, balki

kelajakda qanday o`lishini bilib olishga imkoniyat beradi. Shuningdek, aholining yosh va jinsiy tarkibi to`g`risidagi ma`lumotlar maktab o`quvchilari, maktabgacha tarbiya muassasalarining bolalari, pensionerlar sonini bilish iste`mol mollarini ishlab chiqish va boshqa maqsadlar uchun ham zarur. Aholining yosh va jinsiy tarkibi to`g`risidagi ma`lumotlarsiz yaqin yillardagi aholi dinamikasini hisoblab bo`lmaydi. Shu sababli aholining bu xildagi tarkibi tarmoqlari to`g`risidagi ma`lumotlar rejalashtirish organlari uchun ayniqsa zarur.

Aholining yosh va jinsiy tarkibi birinchi navbatda jamiyatning demografik holatiga bog`liq. Demografik holat aholining yoshi va jinsiy tarkibi nikohga kirish va nikohning bekor etilishi (ajralish), tug`ilish, o`lim va migratsiya kabi jarayonlarda ifodalanadi.

Aholi tarkibida ayollar va erkaklar salmog`ining tengligi, ya`ni mutanosibligi ularning nikohga kirishiga va oilalar tashkil qulay vaziyat yaratadi. Lekin, har doim ham jamiyatda erkaklar va ayollar salmog`i teng bo`lavermaydi. Statistika ma`lumotlariga qaraganda, 100 ta qiz bolaga nisbatan tug`ilgan o`g`il bolalar soni 104–107 tani tashkil etadi. O`g`il bolalar miqdorining qiz bolalarga nisbatan yuqoriligi ularning 15 – 20 yoshlarigacha saqlanib boradi. 20 yoshdan keyin esa jinslar nisbati tenglasha boshlaydi. Chunki chaqaloqlar bolalik va o`smirlik davrida qiz bolalarga nisbatan o`g`il bolalar o`limi yuqoriroq bo`ladi.

Demografik jarayonlarni o`rganishda aholining yoshi – jinsiy tarkibi uning demografik omili muhim hisoblanadi. Har qanday hudud aholisining jinsiy tarkibi uning demografik vaziyat va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga asosiy omillardan biridir. Aholining jinsiy tarkibida nikohlanish yoshidagilar salmog`ining yuqoriligi aholining takror barpo bo`lish ko`rsatgichlariga ta`sir etadi. Aholining yosh – jinsiy tarkibi esa, o`z navbatida, o`tgan demografik vaziyatning mahsuli, kelajakdagi demografik vaziyatning asosiy zaminidir.

Demografik jinslar nisbatini aniqlashda ikki xil ko`rsatgich qo`llaniladi:

1) jami aholi tarkibida jinslar salmog`i % hisobida. Masalan, Qashqadaryo viloyatining jami aholisining soni 2007-yilda 2506,2 ming kishini tashkil etgan.

Ulardan erkaklar 1255,2 ming kishini va ayollar 1251,0 ming kishi bo`lgan. Ushbu ko`rsatkichlar asosida jami aholi tarkibida erkaklar 50,08 % ni, ayollar esa 49,9% ni tashkil etganligini aniqlash mumkin.

Aholi jinsiy tarkibini o`rganishda aniq ko`rsatgich har 1000 ta erkaklarga nisbatan ayollar soni, yoki har 1000 ta ayollarga nisbatan erkaklar soni hisoblanadi. Ushbu ko`rsatgich orqali muayyan hudud (mamlakat, viloyat, tuman va b.) jami aholi sonining va aholi yosh guruhlari (0–2, 3–5, 6–7 ...)ning jinsiy tarkibi o`rganiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan ma`lumotlardan foydalanib, ayollar sonini erkaklar soniga bo`lib, natija 1000 ga ko`paytiriladi. 1959-yilda o`tkazilgan aholi ro`yxati yakuniga ko`ra erkaklar viloyat aholisi tarkibida 48,1% ni, ayollar 51,9% ni tashkil qilgan. 2004-yilda viloyat aholisining 48,9% ini erkaklar va 51,1% ini ayollar tashkil etadi. 2006-yilning boshida Qashqadaryo viloyatida har 1000 nafar ayolga 996 nafar erkak to`g`ri kelgan yoki ayollar erkaklardan 0,2% kamroq bo`lgan; 2008-yilning boshida esa har 1000 nafar erkakka 997 nafarga yaqin ayol to`g`ri keldi. Ana shunday uslub bilan alohida yosh guruhlari uchun ham ayollar va erkaklar nisbati aniqlanadi.

Aholi jinsiy tarkibi yangi tug`ilganlardagi jinsiy nisbat, o`limdagi jinsiy farq va aholi migratsiyasidagi jinsiy farq kabi uch asosiy omil ta`sirida shakllanadi. Qashqadaryo viloyatida aholining jinsiy tarkibi, undagi ijtimoiy – iqtisodiy va demografik omillar ta`sirida o`zgarib turgan. 1926 yilda o`tkazilgan aholi ro`yzati ma`lumotlariga ko`ra, aholining 46,9% ayollar ulushiga to`g`ri kelgan, 1959 yilda esa bu ko`rsatkich 53,5% ni tashkil etgan. Aholi tarkibida esa erkaklar salmog`i kamaygan. Bunday holat shu davrdagi ijtimoiy – siyosiy jarayonlar va davr siyosati bilan bog`liq bo`lgan.

Mamlakatimizda XX asrning ikkinchi yarmida jinslar o`rtasida tafovut asta–sekin tenglasha borgan. Shu jumladan, Qashqadaryo viloyatida 60 – yillardan boshlab hozirgacha bo`lgan davrda jinsiy tarkib tobora muvofiqlashib, ayollarning erkaklarga nisbati 50,2% ga 49,8% ni tashkil etmoqda. Garchi, o`rtacha tafovut sezilarli bo`lmasda, 1989 yildagi aholi ro`yxati ma`lumotlariga ko`ra, har ikkala

jins nisbati deyarli biroz ortganligi ma'lum bo'ladi. Bunday holat, ayniqsa viloyat shaharlarida nisbatan yaqqolroq namoyon bo'ladi. Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyati aholisining 49,9% dan ziyodrog'ini ayollar 50,1% ga yaqinini erkaklar tashkil etadi.

Demak, uzoq yillar davomida aholi tarkibida ayollar salmog'ining erkaklarga nisbati nisbatan olganda kattaroq bo'lishi hozirgi paytda erkaklar salmog'ining ayollarga nisbat biroz ortiqroq bo'lishi bilan ifodalanadi.

Aholi bo'yicha 2004-yil ma'lumotlarining tahlil shuni ko'rsatadiki, Qashqadaryo viloyatida 18 – 19 yoshgacha bo'lgan aholi tarkibida erkaklar soni ayollar soniga nisbatan biroz ko'proq. Ammo 19 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan; guruhlarga ayollarga, ayollarning salmog'i erkaklarga nisbatan 0,2 – 1,9 % ko'proq. Shuningdek, 70 yoshdan keyingi guruhda bu ko'rsatgich 5,9 % ga yetadi.

Aholining yosh tarkibi muhim demografik va iqtisodiy ko'rsatgich hisoblanib, u millat hamda mintaqalar va viloyatlarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi.

Qashqadaryo viloyatida tabiiy o'sishning ancha yuqori bo'lishi aholining yosh tarkibiga ancha katta ta'sir ko'rsatadi. Viloyatda barcha aholi yosh bolalar va o'smirlar salmog'ining ancha yuqori bo'lishini, mehnat resurslari sonining muttasil oshib borishini ta'minlayotir.

Viloyat aholisining tarkibida shahar blan qshloq o'rtasida deyarli farq yo`q. Faqatgina pensiya yoshdan yuqori aholi orasida shahar aholisida ayollar biroz ko'proq miqdorni tashkil etadi.. Viloyatda tug'ilayotgan yoshlarda esa jinslarning nisbati nisbati deyarli tenglashib borayotir.Ammo, viloyatning tumanlari va shaharlari aholisining yosh va jinsiy tarkibi bilan bir-birlaridan ancha farq qiladi. Viloyatning Shahrisabz, Koson shaharlari aholisining tarkibida 0-15 yosh guruhlari ko'proq, Qarshi shahrida esa kamroq. Ammo, Kitob va Yakkabog'da yoshlar umumaholining ko'pchiligini tashkil etsa, mehnatga qobiliyatli aholi umumaholi foizida ko'pchilikni tashkil qiladi.

Qashqadaryo viloyati aholisining yosh tarkibida yoshlarning ko'p bo'lishi hamda jinslar nisbatining tenglashishi aholining tabiiy ko'payishi koeffitsiyentining yuqori bo'lishiga olib keladi. Viloyatda yoshlar hisobiga mehnat resurslarining intensive shakllanishiga to'la shart-sharoitlar mavjud. Mehnat resurslari yildan yilga yoshlar hisobiga ko'payib boradi. Viloyat shaharlari va qishloqlari orasida aholining yosh tarkibidagi farqlarning bo'lishi kelajakda shahar aholisi sonining o'sish sur'atining kamayishiga olib keladi. Qishloq aholisining yosh tarkibida ayniqsa 0-19 yosh guruhining ko'p bo'lishi aholi ning takror barpo qilinishiga handa viloyatda umumiy aholining o'sish koeffitsiyentining yuqori bo'lishiga qulaylik tug'diradi. Viloyat aholisi jinslari nisbatining teng bo'lishi kelgusida ham aholining tabiiy o'sish koeffitsiyentining yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Aholining yosh tarkibi – ijtimoiy iqtisodiy va demografik jarayonlarni o'rganish maqsadida aholining yosh guruhlariga bo'linishidir. Aholi yosh guruhlar va demografik jarayonlar o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanadi. Aholi tarkibida yoshlar salmog'ining yuqoriligi nikoh va tug'ilish kabi yuqori bo'lgan hududlarda bolalar, yoshlar salmog'i yuqori bo'ladi. Tug'ilish darajasi past bo'lgan hollarda esa aholi tarkibida qariyalar (60 yosh va undan yuqori) salmog'i va o'lim hollari ko'proq bo'ladi. Demografik takror barpo bo'lishining natijasi va kelajakdagi demografik rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

I-2. Aholi tarkibi va mustaqillik yillarida unda sodir bo'lgan o'zgarishlar

Aholining takror barpo bo'lishi jamiyat davomiyligini ta'minlovchi asosiy jarayon bo'lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Aholining takror barpo bo'lishi jamiyatning mavjudligini, aholi sonini o'sib borishini ta'minlovchi asosiy biologik jarayon bo'lib, u bevosita ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq holda bo'ladi.

Aholini o`rganishning nazariy asoslariga yondoshuvlar moddiy ne`matlar ishlab chiqarishning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatidan kelib chiqadi.

Asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo`lgan odamlar moddiy boylikni yaratadilar. Shunday ekan, aholi soni, ayniqsa mehnatga layoqatlilar soni kelajakda iqtisodiy rivojlanish va boyliklar hajmi qancha bo`lishini belgilab beradi.

Odanning ko`payishi bilan bog`liq shart-sharoitlar, ijtimoiy organizmlarning tuzilishiga bog`liq bo`ladi. Demak, demografik qonuniyatlarni har bir ijtimoiy organizm uchun alohida-alohida o`rganish zarur bo`ladi. Aholining rivojlanish qonuniyatlari barcha davrlarda, birinchidan, mehnatga layoqatli aholidan ijtimoiy ishlab chiqarishda foydalanish harakteri bilan belgilanadi, ikkinchidan, aholi kengaygan takror barpo bo`lish tipi bilan bog`liq bo`ladi.

Aholining kengaygan takror barpo bo`lishi aholi harakati 3 turining birlikda uzluksiz takrorlanib turishida namoyon bo`ladi. Bu tabiiy, makoniy (hududiy) va migratsion hamda ijtimoiy harakatlarning bir butunligida qaralishini bildiradi. Uchala ko`rinishdagi harakatda ham aholining kengaygan takror barpo bo`lishining sajiyasi jonli ishlab chiqaruvchi kuch bilan mehnatkashlarning ushbu iqtisodiy tuzumda tutgan va davlatning ijtimoiy siyosatiga bog`liq bo`ladi. Chunki, demografik siyosat davlat ijtimoiy siyosatining bir qismidir. Bu o`rinda sog`liqni saqlash sohasi, ta`lim-tarbiya, fizkultura va sport kabi sohalar rivojiga qanday e`tibor berilishi g`oyat muhimdir.

Agar aholining tabiiy harakati natijasidagi takror barpo bo`lishini o`rganish kerak bo`lsa, masalaning biologik omillariga, genetika sohasiga, tug`ilish, oila qurish, o`lim, umrning uzunligi, oilaning ajralib ketishi kabi holatlarga aloqador ko`rsatkichlar majmui bilan ifodalanadi.

Insoniyat taraqqiyot tarixi shuni ko`rsatadiki, inson hayotida shart-sharoitlarning o`zgarishi tug`ilishning o`zgarishiga, ya`ni oiladagi bolalar sonining o`zgarishiga va oxir-oqibatda aholi sonining o`sish sur`atlari tezlashuviga (yoki sekinlashuviga) sabab bo`ladi.

Mamlakatdagi aholi sonining tarkibi va o`lish jarayonlarini o`rganish, uning rivojlanish qonuniyatlarini hamda mehnat bozoriga ta`sir ko`rsatadigan omillarni teranroq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, demografik omillarni o`rganish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur`atlari aholini o`lish sur`atlariga mos kelishi yoki kelmasligini, uning mehantga layoqatli qismining iqtisodiy tarmoqlarida samarali bandligini bilish uchun muhim hisoblanadi.

Aholining tabiiy harakati. Aholining tabiiy ko`payishi har 1000 kishi hisobiga tug`ilganlar sonining o`lganlar soniga nisbatan bo`lgan tafovvti bilan belgilanadi. Ma`lumki, aholi sonining o`lish darajasi uning tabiiy ko`payishiga, ya`ni tug`ilish va o`lish ko`rsatkichiga bog`liqdir. Biroq, O`zbekistonning boshqa viloyatlaridagi kabi Qashqadaryo viloyatida ham bo`ydoqlar sonining ozligi, yosh jihatdan barvaqtroq nikohlanish va mahalliy millat kishilari o`rtasida aholi harakatining sustligi aholining tabiiy ko`payishida muhim ahamiyatga ega bo`lgan omillardan biridir. Shu sababli 1959-1970-yillarda Qashqadaryo viloyatida aholining o`rtacha yillik ko`payishi O`zbekiston aholisining o`rtacha yillik ko`payishi ko`rsatkichidan yuqori bo`ldi.

Aholining mexanik ko`payishi Qashqadaryo viloyatida ayniqsa o`tgan asrning 60-yillardan keyingi davrda ro`y berdi. Chunki, Qarshi cho`lidagi yangi yerlarning o`zlashtirilishi hamda tabiiy resurslaridan foydalanish sur`atlarining oshishi munosabati bilan O`zbekistonning boshqa viloyatlaridan aholining ko`chib kelishi ham umumiy aholi sonining ko`payishiga olib keldi.

1970-1990-yillarda Qashqadaryo viloyati aholisi 2,1 marta ko`paydi. Qashqadaryo viloyatida aholining O`zbekistondagiga nisbatan tez o`lishi viloyatda o`tgan asrning 70-yillardan boshlab ishlab chiqarish kuchlarining tez o`sganligi bilan bog`liq. O`tgan yillarda Qarshi cho`lida 240 ming ga dan ziyod yangi yerlar o`zlashtirildi, ko`plab qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat hamda yoqilg`i-energetika sanoati korxonalari ishga tushirildi. Shuningdek, suv inshootlari, aloqa qilish yo`llari, madaniy va maishiy binolar hamda turar joylar bunyod etildi. Viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi O`zbekistonning ko`pgina

tumanlaridan hamda sobiq ittifoqning boshqa respublikalaridan bu yerga ko'plab aholining ko'chib kelishiga sabab bo'ldi. Natijada viloyat aholisi soni ham tashqaridan kelgan aholi hamda tabiiy o'sish hisobiga muttasil o'sib bordi. Bu davr uchun shuningdek, yangi shaharlarning vujudga kelishi va shahar aholisi salmog'ining ortishi ham harakterlidir. Ma'lumotlarga ko'ra, 1970-yilda viloyat aholisining 16,5%ini shahar aholisi tashkil etgan. 1990-yilda esa bu ko'rsatkich 26,0% ga yetgan (4-ilova).

O'zbekistonda aholi soni 1991-yilda 20,7 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2010-yil boshida 28,08 mln. kishidan oshib ketdi. Shu yillar davomida aholining o'rtacha o'sish darajasi 400 ming kishini tashkil etdi. Oldingi yillardagi sonlarga nisbatan tug'ilish sur'atlari o'sdi, o'lim ko'rsatkichlari kamaydi. Bu o'tgan asrning 80 – yillaridagi yuqori tug'ilish sur'atlarining o'ziga xos demografik natijasi hisoblanadi. Keyingi 2 – 3 yil mobaynida tug'ilishning o'sishi o'sha yillarda tug'ilgan kishilarning oila qurishni boshlaganligidan dalolat beradi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda aholi tabiiy harakati ijtimoiy-iqtisodiy omillar natijasida birmuncha o'zgardi. Odatda, tabiiy ko'payish darajasining yuqori bo'lishi aholi sonining tez o'sishiga olib keladi. Bunday holat tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlariga bog'liq. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tug'ilish jarayoni so'nggi yillarda sezilarli darajada pasayib ketdi va bu ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko'ra yuzaga keldi. Tug'ilish umumiy ko'rsatkichining pasayishiga go'daklar o'limi, ayollarning mehnat faoliyati sharoiti, uy-joy va bolalar muassasalari bilan ta'minlanganlik darajasi, ekologik va boshqa omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekistonda aholi soni 1991-yilda 20,7 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, 2006-yil boshida 26,0 mln. kishidan oshib ketdi. Ushbu yillar davomida aholining o'rtacha o'sish darajasi 445 ming kishini tashkil etgan. Oldingi yillardagi sonlarga nisbatan tug'ilish sur'atlari o'sdi, o'lim ko'rsatkichlari esa kamaydi. Bu o'tgan asrning 80-yillaridagi yuqori tug'ilish sur'atlarining o'ziga xos demografik natijasi hisoblanadi. Keyingi 2-3 yil mobaynida tug'ilishning o'sishi o'sha yillarda tug'ilgan kishilarning oila qurishni boshlaganligidan dalolat beradi.

Statistik ma'lumotlarning tahlili Qashqadaryo viloyatida keyingi 80 yil mobaynida aholining tabiiy o'sishi ancha jadal kechganligini ko'rsatadi. Aholi sonining bunday tez sur'atlar bilan o'sishiga tabiiy ko'payish bilan bir qatorda chetdan aholining ko'chib kelishi (mexanik ko'payish) ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu sababli 1959-1970 yillarda Qashqadaryo viloyatida aholining o'rtacha yillik ko'payishi O'zbekiston aholisining o'rtacha yillik ko'payishi ko'rsatgichidan yuqori bo'ldi.

2003-yilda Qashqadaryo viloyatida aholining tabiiy o'sishi qishloqlarda 20,9, shaharlarda esa 14,9% ni tashkil etadi. 2004-yil ma'lumotlariga ko'ra Qashqadaryo viloyati aholining tabiiy o'sishiga ko'ra (18,7%) viloyatlar orasida birinchi o'rinni egallab kelgan Surxondaryo viloyatini (18,1%) ham ortda qoldirib va hozirgi paytda tug'ilish darajasiga ko'ra birinchi o'rinni egallab turibdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli mamlakat aholisining etnik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda demografik siyosat yuritish imkoniyatlari vujudga keldi. Aholining tabiiy ko'payishi aholi soninig o'sishida asosiy manbadir. Qashqadaryo viloyatida 1991-2005 yillarda aholi sonining ko'payishi tabiiy ko'payish hisobiga sodir bo'lmoqda. Viloyat aholi soni 1999-yilda 1989-yilga nisbatan deyarli 1,4 marta ko'payadi. 1999-yilda viloyat aholisining soni 2123,0 ming kishini, 2001-yilda 2257,0 ming kishi, 2002-yilda 2298,0 ming kishi, 2003-yilda 2339,7 ming kishi, 2004-yilda 2381,8 ming kishi va 2006-yilning boshida 26 407,8 ming kishiga yetdi. Shunday qilib, Qashqadaryo viloyati aholisining o'rtacha yillik o'sishi 1979-1989 yillarda 47,8 ming, 1990-1999 yillarda 58,0 ming , 1999-2004 yillarda 58,5 ming va 2005-2012-yillarda ... ming kishini tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyati aholisi asosan tabiiy ko'payish hisobiga o'smoqda. 1995-2005-yillarda viloyatda aholi soni 1 917,9 ming kishidan 2 640,7 ming kishiga yetdi yoki tabiiy ko'payish hisobiga bu yillarda qariyb 722,8 ming kishiga o'sdi. Tabiiy o'sish 1991-yilda har 1 000 kishiga, 37,7 kishini tashkil etgan bo'lsa,

1999-yilda 17,7 kishini, 2001-yilda 19,1 kishi, 2002-yilda 18,7 kishini, 2003-yilda 18,8 kishi, 2004-yilga kelib 18,4 kishini tashkil etdi.

Aholi tabiiy harakatining hududiy xususiyatlariga ko'ra O'zbekiston viloyatlarini 3 guruhga – tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan (17,0% dan ortiq) hududlarga (Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax), tug'ilish ko'rsatkichi o'rtacha bo'lgan (15,0-17,0%) Buxoro, Sirdaryo, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi va tug'ilish darajasi past (15,0% dan kam) bo'lgan hududlarga (Navoiy, Farg'ona, Andijon va Toshkent viloyatlari)ga ajratish mumkin. Tabiiy ko'payish darajasi bo'yicha Qashqadaryo viloyati tabiiy ko'payish koeffitsiyenti yuqori bo'lgan viloyatlar guruhiga (Jizzax, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand, Qoraqalpog'iston Respublikasi) mansub bo'lib, ularda aholining tabiiy ko'payish koeffitsiyenti 17,2% dan ortiq. Demak, bu ko'rsatkich bo'yicha Qashqadaryo viloyati mamlakatimizda “yetakchilik” qilmoqda.

Ta'kidlash joizki, aholi tabiiy harakati ko'rsatkichlari shahar va qishloq joylarda farq qiladi: qishloq joylarda tug'ilish shaharlarga nisbatan birmuncha yuqori. Buning bir qancha obektiv va subektiv sabablari mavjud. Jumladan, qishloqlarda ayollarning ijtimoiy hayotida bandligini past darajada bo'lishi, qo'l mehnati ko'p talab qilinadigan qishloq xo'jaligida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi, milliy an'analar davrlar davomida tug'ilishning yuqori bo'lishiga olib kelgan. Shahar aholisi tarkibida esa turli millat vakillarining ayollarning ijtimoiy hayotda faolligi, iqtisodiy-ijtimoiy omillarga bog'liq holda uy-joy muammosi va boshqa sabablari tug'ilish darajasining biroz past bo'lishiga olib keladi.

Tabiiy o'sish 1991-yilda 37,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilda 17,7% ni, 2001-yilda 19,1 va 2004-yilda 18,7 % ni tashkil etdi. Shu yili Qashqadaryo viloyati aholining tabiiy o'sishiga ko'ra viloyatlar orasida birinchi o'rinni egallab kelgan Surxondaryo viloyatini (18,1 %) ham ortda qoldirdi. 2010-yilda tabiiy o'sish 20,5% ni tashkil etdi va tabiiy o'sishga ko'ra viloyat 4-o'rinni egallab turibdi. Qashqadaryo viloyati aholisi asosan tabiiy ko'payish hisobiga o'smoqda.

1991 – 2010-yillarda viloyatda aholi soni 1697.7 ming kishidan 2671,0 ming kishiga yetdi, yoki tabiiy ko`payish hisobiga bu yillarda 993,3 ming kishiga o`sdi. Mamlakatimizdagi kabi Qashqadaryo viloyatida ham aholining mutloq soni o`sib borayotganligiga qaramasdan yillik o`sish sur`atlari sekinlashmoqda. Aholi soni o`sishining pasayib borayotganligi asosan tug`ilishning pasayishi hisobiga bo`lmoqda. Tabiiy o`sish 1991-yilda har 1 000 kishiga 37,7 kishini tashkil etgan bo`lsa, 1999-yilda 17,7 kishini, 2001-yilda 19,1 kishi, 2002-yilda 18,7 kishini, 2003- yilda 18,8 kishini, 2005-yilda 18,1 kishini va 2010-yilda 21,0 kishini tashkil etdi (4-jadval).

Qashqadaryo viloyatida keyingi yillarda aholining tabiiy ko`payish darajasi o`limga nisbatan tug`ilish sur`atlarining kamayishi tufayli biroz kamaydi. Tabiiy ko`payishning eng past darajasi 1999-yilda 17,7% ni va 2006-yilda 17,9% kuzatildi (6-jadval).

6-jadval. Qashqadaryo viloyatida 2005- 2010 yillarda aholining tabiiy o`shishi

Demografik ko`rsatkichlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010
Tug`ilish kishi ‰	53125 22,2	53731 22,0	58590 23,6	64054 25,2	62968 24,3	65788 24,9
O`lish kishi ‰	9765 4,1	10019 4,1	10539 4,2	9976 3,9	9814 4,2	10290 3,9
Tabiiy o`sish kishi ‰	43360 18,1	43712 17,9	48071 19,4	54078 21,3	53154 20,5	55488 21,0

Statistik ma`lumotlarning tahlili Qashqadaryo viloyatida keyingi 80 yil mobaynida aholining tabiiy o`shishi ancha jadal kechganligini ko`rsatadi. Aholi sonining bunday tez sur`atlar bilan o`sishiga tabiiy ko`payish bilan bir qatorda ayrim yillarda chetdan aholining ko`chib kelishi (mexanik ko`payish) ham ta`sir ko`rsatgan. Shu sababli 1959 – 1970-yillarda Qashqadaryo viloyatida aholining

o`rtacha yillik ko`payishi O`zbekiston aholisining o`rtacha yillik ko`payishi ko`rsatgichidan yuqori bo`ldi.

Keyingi yillarda O`zbekistonning barcha viloyatlarida tug`ilish darajasining qisqarishi tabiiy ko`payishning pasayishiga sabab bo`lmoqda. 1989 yilda mamlakatda tabiiy ko`payish 27,0 % ni, 1996-yilda viloyatda tabiiy ko`payish 27,9% ni, tashkil etgan, 2003-yilda esa bu ko`rsatgich 14,5% ga teng bo`ldi. Bu yillarda tabiiy ko`payish darajasi 12,5% ga kamaygan. Bunday holat Qashqadaryo viloyati uchun ham xos (18,7%).

Tabiiy ko`payish darajasi bo`yicha Qashqadaryo viloyati tabiiy ko`payish koeffitsiyenti yuqori bo`lgan viloyatlar (Jizzax, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand, Qoraqalpog`iston Respublikasi) guruhiga mansub bo`lib, ularda aholining tabiiy ko`payish koeffitsiyenti 17,2 % dan ortiq.

Ta`kidlash joizki, aholi tabiiy harakati ko`rsatgichlari shahar va qishloq joylarda farq qiladi: qishloq joylarda tug`ilish shaharlarga nisbatan birmuncha yuqori. Buning bir qancha ob`ektiv va sub`ektiv sabablari mavjud. Jumladan, qishloqlarda ayollarning ijtimoiy hayotida bandligini past darajada bo`lishi, qo`l mehnati ko`p talab qilinadigan qishloq xo`jaligida ishchi kuchiga bo`lgan ehtiyojning mavjudligigi, milliy an`analar davrlar davomida tug`ilishning yuqori bo`lishiga olib kelgan. Shahar aholisi tarkibida esa turli millat vakillarining ayollarning ijtimoiy hayotda faolligi, iqtisodiy – ijtimoiy omillarga bog`liq holda uy – joy muammosi va boshqa sabablari tug`ilish darajasining biroz past bo`lishiga olib keladi.

O`zbekistonda aholi soni 1991-yilda 20,7 mln. kishini tashkil etgan bo`lsa, 2010-yil boshida 28,08 mln. kishidan oshib ketdi. Ushbu yillar davomida aholining o`rtacha o`sish darajasi 400 ming kishini tashkil etgan. Oldingi yillardagi sonlarga nisbatan tug`ilish sur`atlari o`sdi, o`lim ko`rsatkichlari esa kamaydi. Bu o`tgan asrning 80-yillaridagi yuqori tug`ilish sur`atlarining o`ziga xos demografik natijasi hisoblanadi. Keyingi 2-3 yil mobaynida tug`ilishning o`sishi o`sha yillarda tug`ilgan kishilarning oila qurishni boshlaganligidan dalolat beradi.

Tug`ilish va aholi tabiiy o`shining yuqoriligi, dastavval o`zbek va boshqa tub millatlar vakillari ko`pchilikni tashkil etishi bilan bog`liq. Bu esa o`z navbatida ana shu millatlarga xos bo`lgan ko`pbolalik, aholikatta qismining qishloqlarda istiqomat qilishi, ayollarning ishlab chiqarishda hisbatan kamroq band bo`lishi bilan bog`liq. Nikoh darajasining yuqoriligi, ajralishning kamligi ham muayyan darajada tug`ilishga o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Qashqadaryo viloyatida 1989-2005-yillarda tug`ilishning kamayish tezligi kuzatildi. Mazkur yillarda tug`ilishning kamayish tezligi o`rtacha yiligi 1,07 punktni tashkil etadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, viloyatda tug`ilish darajasi yuqori bo`lishiga qaramasdan, uning kamayish sur`ati boshqa viloyatlarga nisbatan ildamroq kechmoqda.

Keyingi yillarda O`zbekistonning barcha viloyatlarida tug`ilish darajasining qisqarishi tabiiy ko`payishning pasayishiga sabab bo`lmoqda. 1989 yilda mamlakatda tabiiy ko`payish 27,0% ni tashkil etgan bo`lsa, 2003-yilda esa bu ko`rsatkich 14,5% ga teng bo`ldi. Bu yillarda tabiiy ko`payish darajasi 12,5% ga kamaygan. Bunday holat Qashqadaryo viloyati uchun ham xos (18,7%).

Aholi tabiiy harakatining hududiy xususiyatlariga ko`ra O`zbekiston viloyatlarini 3 guruhga – tug`ilish darajasi yuqori bo`lgan (17,0% dan ortiq) hududlarga (Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax), tug`ilish ko`rsatkichi o`rtacha bo`lgan (15,0-17,0%) Buxoro, Sirdaryo, Namangan viloyatlari va Qoraqalpog`iston Respublikasi va tug`ilish darajasi past (15,0% dan kam) bo`lgan hududlarga (Navoiy, Farg`ona, Andijon va Toshkent viloyatlari)ga ajratish mumkin. Demak, bu ko`rsatkich bo`yicha Qashqadaryo viloyati mamlakatimizda “yetakchilik” qilmoqda.

Qashqadaryo viloyatida ham mamlakatimizning boshqa viloyatlaridagi kabi tug`ilish darajasi qishloqlarda shaharlardagiga nisbatan yuqori. 2003-yilda Qashqadaryo viloyatida aholining tabiiy o`shishi qishloqlarda 20,9, shaharlarda esa 14,4 % ni, 2008-yilda qishloqlarda 75,4% ni, shaharlarda 24,6% ni tashkil etadi. Ammo, 2009-yilda yirik qishloqlarga shaharcha maqomi berilishi

munosabati bilan butun mamlakatimizdagi kabi viloyatda ham qishloq va shahar aholisi orasidagi nisbat keskin o'zgardi va hozirgi paytda (2011-yilning boshida) qishloqlarda 1158,2 (43.3%), shaharlarda 1512,8 (56,6%) istiqomat qilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 1970-yilda viloyat aholisining 16,5% ini shahar aholisi tashkil etgan. 1990 yilda esa bu ko'rsatkich 26,0% ga yetgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishishi tufayli mamlakat aholisining etnik xususiyatlarini e'tiborga olgan holda demografik siyosat yuritish imkoniyatlari vujudga keldi. Qashqadaryo viloyatida 1991-2010-yillarda aholi sonining ko'payishi tabiiy ko'payish hisobiga sodir bo'lmoqda. Viloyat aholi soni 1999-yilda 1989-yilga nisbatan deyarli 1,4 marta ko'payadi. 1999-yilda viloyat aholisining soni 2123,0 ming kishini, 2001-yilda 2257,0 ming kishi, 2002-yilda 2298,0 ming kishi, 2003-yilda 2339,7 ming kishi, 2004-yilda 2381,8 ming kishi va 2006-yilning boshida 26 407,8 ming kishiga yetdi. Shunday qilib, Qashqadaryo viloyati aholisining o'rtacha yillik o'sishi 1979-1989 yillarda 47,8 ming va 1990-1999 yillarda 58,0 ming kishi, 1999-2004 yillarda 58,5 ming va 2005-2010 yillarda 49,8 ming kishini tashkil qildi.

1995-2005 yillarda viloyatda aholi soni 1 917,9 ming kishidan 2 640,7 ming kishiga yetdi yoki tabiiy ko'payish hisobiga bu yillarda qariyb 722,8 ming kishiga o'sdi. 2005-2010-yillarda viloyat aholisining soni 110% ga yoki 2671,0 ming kishiga ko'paydi. Tabiiy o'sish 1991-yilda har 1 000 kishiga 37,7 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilda 17,7 kishini, 2001-yilda 19,1 kishi 2002-yilda 18,7 kishini 2003-yilda 18,8 kishi, 2004-yilga 18,4 kishini , 2005-yilda 18,1 kishini va 2011-yilda 17,6 kishini tashkil etdi.

Tabiiy ko'payish darajasi bo'yicha Qashqadaryo viloyati tabiiy ko'payish koeffitsiyenti yuqori bo'lgan viloyatlar guruhiga (Jizzax, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand, Qoraqalpog'iston Respublikasi) mansub bo'lib, ularda aholining tabiiy ko'payish koeffitsiyenti 17,2% dan ortiq.

Ta'kidlash joizki, aholi tabiiy harakati ko'rsatkichlari shahar va qishloq joylarda farq qiladi: qishloq joylarda tug'ilish shaharlarga nisbatan birmuncha

yuqori. Buning bir qancha obektiv va subektiv sabablari mavjud. Jumladan, qishloqlarda ayollarning ijtimoiy hayotida bandligini past darajada bo`lishi, qo`l mehnati ko`p talab qilinadigan qishloq xo`jaligida ishchi kuchiga bo`lgan ehtiyojning mavjudligi, milliy an`analar davrlar davomida tug`ilishning yuqori bo`lishiga olib kelgan. Shahar aholisi tarkibida esa turli millat vakillarining ayollarning ijtimoiy hayotda faolligi, iqtisodiy-ijtimoiy omillarga bog`liq holda uy-joy muammosi va boshqa sabablari tug`ilish darajasining biroz past bo`lishiga olib keladi.

II BOB. QASHQADARYO VILOYATI AHOLISINING JOYLANISHI

II.1. Aholi joylashuvining xususiyatlari

Aholi joylashuvini o`rganish muhim geografik - demografik vazifalardan biri hisoblanadi. A h o l i j o y l a n i s h i ma`lum bir o`lcham va turdagi xilma-xil shakllarga ega bo`lgan aholi manzilgohlari tizimi hamda turini vujudga keltiradi. A h o l i m a n z i l g o h l a r i odamlarning yashash joyi, moddiy va ma`naviy boyliklarni ishlab chiqaradigan va iste`mol qiladigan markazlari, avlodlar takror barpo bo`ladigan ijtimoiy hayot o`chog`i hisoblanadi. Aholi manzilgohlari – ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko`ra o`zaro tafovvtlarga ega bo`lgan, muayyan miqdorda aholi istiqomat qiladigan hududlardir. Aholi manzilgohlari *aholi yashaydigan joylar* yoki *seliteb hudud* ham deyiladi va aholi geografiyasining asosiy ilmiy tushunchalaridan hisoblanadi.

Aholini hududiy tashkil etishning shakli – *aholi manzilgohlaridir*. S.A.Kovalyov (1963) aholi va aholi manzilgohlarining joylanishini inson tomonidan yaratilgan odamlar hayoti uchun zarur bolgan moddiy shart-sharoitga ega, muayyan hududda yashovchi aholining joylashishi, deb ta`riflaydi.

Jamiyat hayotining asosini uchun va inson tomonidan moddiy boyliklar ishlab chiqarish tashkil etadi. Har qanday ishlab chiqarish faoliyati muayyan aholi manzilgohining vujudga kelishiga, rivojlanishiga zamin bo`lib xizmat qiladi. Turli kattalikdagi aholi manzilgohlari, ularning murakkab tizimlari aholining hududiy tashkil etish shakllaridir. Uning ijtimoiy tashkil etish shakllariga har xil yosh va jins, millat, elat, kasb - hunarga mansub kishilar uyushmasi kiradi. Mamlakat ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishida aholi manzilgohlari muhim o`rin egallaydi. U milliy iqtisodiy hududiy tizimida tabiiy resurslar, ijtimoiy ishlab chiqarish va infrastrukturani bir – birlari bilan bog`lovchi vazifani bajaradi.

Guruhlashgan holda joylashgan aholi manzilgohlari esa turli kattalikdagi shahar va qishloq aholi manzilgohlarining ko`rinishida bo`ladi. Shu

sababli bunday guruh aholi manzilgohlari ikkita – s h a h a r va q i s h l o q aholisi manzilgohlariga bo`linadi.

Shahar va qishloq manzilgohlarini ajratish uchun shart-sharoitlar yaratish tarixan ijtimoiy-hududiy mehnat taqsimoti bilan bog`liq. Mehnat taqsimoti dastavval dehqonchilik mehnatidan sanoat va savdo mehnatinining ajralib chiqishiga va shu orqali qishloqdan shaharni ajralib chiqishiga olib kelgan. Bu esa aholi manzilgohlarining ikki asosiy tipini – shahar (shaharlar) va qishloq (qishloq, ovul, xutor va b.) tiplarining rivojlanishini taqoza etadi.

Shahar manzilgohlari – quyidagi iqtisodiy-xo`jalik funksiyalarini (bir yoki turli birikmalardagi bir necha) bajaradigan aholi manzilgohlaridir: 1) sanoat; 2) tyransport; 3) tashkiliy-xo`jalik, madaniy-siyosiy va ma`muriy; 4) dam olish va davolanishni tashkillashtirish (kurortlar). Shahar manzilgohlarini belgilash uchun aholining soni, uning bandligi, (turli mamlakatlar va rayonlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda) aholi manzilgohining iqtisodiy va madaniy ahamiyati va boshqa bir qancha belgilarni inobatga olish zarur. Qishloq joylariga asosan katta bo`lmagan aholi manzilgohlari mansub. Bunday manzilgohlarning aholisi faoliyatning hududiy tarqoq turlari bilan shug`ullanadi. Mamlakatimizda bunday aholi manzilgohlari qishloqlar deyiladi Boshqa mamlakatlarda o`ziga xos nomlar qo`llaniladi (selo, derevnya, stanitsa, aul, villeyj va b.). Umuman olganda, bu nomlar ma`lum darajada qishloq joylarining funksional xususiyatlarini anlatadi, ammo bu asosda qishloq joylarini ilmiy jihatdan tiplarga ajratib bo`lmaydi. Ijtimoiy mehnat taqsimotidagi ustuvor funksiyalariga ko`ra qishloq joylarining ikki xili – *qishloq xo`jalik* va *noqishloq xo`jalik* joylari farqlanadi.

“Qishloq xo`jalik” va “qishloq noqishloq xo`jalik” aholi manzilgohlari - qishloq tipidagi aholi yashaydigan joylarning ishlab chiqarish yo`nalishini oydinlashtiradigan tushunchalardir. Qishloq xo`jalik aholi manzilgohlari deganda aholisi asosan qishloq xo`jalik mehnati bilan shug`ullanadigan, noqishloq xo`jalik aholi manzilgohlari deganda esa qishloq xo`jaligidan

boshqa sohada band bo`lgan va boshqa hududiy jihatdan bo`lak vazifalarni (o`rmon xo`jaligi, transport xizmati, rekratsiya resurslaridan foydalanish va b.) amalga oshirishda ishtirok etadigan joylardir. “Agroindustrial poselok” o`zida har ikkalaa tipdagi aholi manzilgohlarini birlashtiradi. Bunday manzilgohlar qishloq joylarida sanoat yoki boshqa armoqning rivojlanishi natijasida shakllanadi.

Shahar va qishloqni tizimli o`rganish faqat bitta mezoniga asoslanmasligi lozim, zero ulardan har biri mazkur tushunchaning faqat bir tomonini ifoda etadi. Shahar va qishloq joylarini har tomonlama o`rganish uchun ko`pgina mezonlarni jalb etish lozim. Adabiyotlarni o`rganish bizga “shahar” va “qishloq” mezonlarining quyidagi turlarini belgilash imkonini berdi:


- aholining soni va uning barqarorlik darajasi; aholining tabiiy va mexanik harakatining sajiyasi;
- ijtimoiy ishlab chiqarish tarmoq va professional tuzilmasining sajiyasi va murakkabligi, sanoat, qurilish, transportning darajasi;
- moddiy-hududiy muhit uyushuvi darajasi, aholi manzilgohining obodonlik;
- xizmat ko`rsatishning rivojlanish darajasi, ya`ni sotsial iste`molning barcha shakllarini uyushtirilishi;
- aholi manzilgohlarining sotsial vazifalari (jamiyat va iqtisodiyotni boshqarishda uning roli, atrofdagi aholigohlarga nisbatan funksiyalari);
- aholining turmush tarsi;
- onhlilik holati (shu aholi uchun o`ziga xos me`yorlar va qadriyatlar);
- aholi manzilgohiga shaharga yoki qishloqqa nisbatan munosabat;
- har bir mezoniga mos aniq ko`rsatkichlar tizimi;

Aholi manzilgohlarini “shahar” va “qishloq”ga tasniflashni zaruriy darajaga yetkazish maqsadlarida nazariy mezonlar shakllantirishdan tashqari yana quyidagilar zarur:

- “qishloq”dan “shahar”ga o`tishni ifodalaydigan ko`rsatkichlar “boshlang`ich” qiymatlarining tizimi;

- o`rganiladigan aholigohlarning yig`indisi uchun bu ko`rsatkichlarning miqdor qiymatlari to`g`risidagi axborot.

Hozircha qishliqlarning tobora urbanizatsiyalashayotganligini va noqishloq xo`jalik bandligini tarqalishini e`tiborga olgan holda aholi manzilgohlarini quyidagi turlarga ajratish maqsadga muvofiq.



1-chizma. Aholi manzilgohlarining tasniflanishi

Shahar va qishloq aholi manzilgohlari bir – biri bilan chambarchas bog`liq bo`lib, ular o`rtasida aniq chegara o`tkazib bo`lmaydi. Ammo, shunga qaramasdan, shahar va qishloqni bir – biridan ajratuvchi alohida mezonlar ham mavjud. Bu me`zonlar turli davlatlarda o`ziga xos xususiyatlarga ega .

Qashqadaryo viloyatida aholi sonining ko`payishiga bog`liq holda uning geografik joylashuvi va zichligida ham o`zgarishlar sodir bo`ldi. Qishloqlar aholi yashaydigan manzillarning shaharga nisbatan qadimiyroq shaklidir. Qishloqlar asosan qishloq xo`jaligi rivojlangan hududlar bo`lib, qishloq xo`jaligi bilan bog`liq mavsumiy ishsizlik xos bo`lgan hududlardir. Qishloq aholi manzilgohlari unda

ishlovchilar soni, joylashgan geografik o`rni, bajaradigan funktsiyasiga ko`ra shahardan farq qiladi.

Aholi joylashuvini o`rganish muhim geografik - demografik vazifalardan biri hisoblanadi. Aholi joylashish ma`lum bir o`lcham va turdagi xilma - xil shakllarga ega bo`lgan aholi manzilgohlari tizimi hamda turini vujudga keltiradi. Aholi manzilgohlari odamlarning yashash joyi, moddiy va ma`naviy boyliklarni ishlab chiqaradigan va iste`mol qiladigan markazlari, avlodlar takror barpo bo`ladigan ijtimoiy hayot o`chog`i hisoblanadi. Aholi manzilgohlari - ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko`ra o`zaro tafovutlarga ega bo`lgan, muayyan miqdorda aholi istiqomat qiladigan hududlardir. Aholi manzilgohlari *aholi yashaydigan joylar* yoki *seliteb hudud* ham deyiladi va aholi geografiyasining asosiy ilmiy tushunchalaridan hisoblanadi.

Aholini hududiy tashkil etishning shakli - *aholi manzilgohlaridir*. S.A.Kovalyov (1963) aholi va aholi manzilgohlarining joylanishini inson tomonidan yaratilgan odamlar hayoti uchun zarur bolgan moddiy shart-sharoitga ega, muayyan hududda yashovchi aholining joylashishi, deb ta`riflaydi.

Jamiyat hayotining asosini uchun va inson tomonidan moddiy boyliklar ishlab chiqarish tashkil etadi. Har qanday ishlab chiqarish faoliyati muayyan aholi manzilgohining vujudga kelishiga, rivojlanishiga zamin bo`lib xizmat qiladi. Turli kattalikdagi aholi manzilgohlari, ularning murakkab tizimlari aholining hududiy tashkil etish shakllaridir. Uning ijtimoiy tashkil etish shakllariga har xil yosh va jins, millat, elat, kasb - hunarga mansub kishilar uyushmasi kiradi. Mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida aholi manzilgohlari muhim o`rin egallaydi. U milliy iqtisodiy hududiy tizimida tabiiy resurslar, ijtimoiy ishlab chiqarish va infrastrukturani bir - birlari bilan bog`lovchi vazifani bajaradi.

Guruhlashgan holda joylashgan aholi manzilgohlari esa turli kattalikdagi shahar va qishloq aholi manzilgohlarining ko`rinishida bo`ladi. Shu sababli bunday guruh aholi manzilgohlari ikkita - *shahar* va *qishloq* aholisi manzilgohlariga bo`linadi.

Shahar va qishloq aholi manzilgohlari bir – biri bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, ular oʻrtasida aniq chegara oʻtkazib boʻlmaydi. Ammo, shunga qaramasdan, shahar va qishloqni bir – biridan ajratuvchi alohida mezonlar ham mavjud. Bu mezonlar turli davlatlarda oʻziga xos xususiyatlarga ega .

Qashqadaryo viloyatida aholi sonining koʻpayishiga bogʻliq holda uning geografik joylashuvi va zichligida ham oʻzgarishlar

7-jadval. Qashqadaryo viloyat shahar va qishloq aholisi soning dinamikasi

1991				1995				2000			
Jami aholi	Qishloq	Shahar		Jami aholi	Qishloq	Shahar		Jami aholi	Qishloq	Shahar	
ming kishi	ming kishi	ming kishi	%	ming kishi	ming kishi	ming kishi	%	ming kishi	ming kishi	ming kishi	%
1697,7	1251,9	445,8	26,3	1917,9	1426,2	491,7	25,6	2170,2	1615,8	554,4	45,5

2005				2010			
Jami aholi	Qishloq	Shahar		Jami aholi	Qishloq	Shahar	
ming kishi	ming kishi	ming kishi	%	ming kishi	ming kishi	ming kishi	%
2423,7	1823,1	600,6	43,4	2671,0	1512,8	1158,2	

II.2. Qishloq aholisi va uning tarkibidagi oʻzgarishlar

Qishloqlar aholi yashaydigan manzillarning shaharga nisbatan qadimiyroq shaklidir. Qishloqlar asosan qishloq xoʻjaligi rivojlangan hududlar boʻlib, qishloq xoʻjaligi bilan bogʻliq mavsumiy ishsizlik xos boʻlgan hududlardir. Qishloq aholi manzilgohlari unda ishlovchilar soni, joylashgan geografik oʻrni, bajaradigan funktsiyasiga koʻra shahardan farq qiladi.

Qishloq aholi manzilgohlarining rivojlanishi qishloq xoʻjaligi tarmogʻi bilan chambarchas bogʻliq. Biroq, aholisi qishloq xoʻjaligida band boʻlmasdan, sanoatda, transportda va boshqa tarmoqlarda ishlaydigan aralash funktsiyali

qishloq aholi manzilgohlari ham mavjud. Shu sababli qishloq aholi manzilgohlari bajaradigan funktsiyasiga qarab 3 ta asosiy guruhga birlashtiriladi:

- 1) qishloq xo`jaligi bilan bog`liq bo`lgan aholi manzilgohlari;
- 2) qishloq xo`jaligi bilan bog`liq bo`lmagan aholi manzilgohlari;
- 3) aralash qishloq aholi manzilgohlari;

Shunga bog`liq holda aholisi ham “qishloq xo`jaligi aholisi” va “qishloq xo`jaligida band bo`lmagan qishloq aholisi” guruhlariga ajratiladi.

Qishloq aholi manzilgohlari tasniflanganda uchta asosiy sinflarga (kichik, o`rta va katta qishloqlarga) ajratilsada, maxsus tadqiqotlarda aholi soniga ko`ra qishloqlarni quyidagicha guruqlashtirish maqsadga muvofiq (Soliyev, Nazarov, 2009):

- ✓ Mayda qishloqlar – aholi soni 500 kishigacha;
- ✓ Kichik qishloqlar - 500– 1000 kishi;
- ✓ O`rta qishloqlar - 1000 – 3000 kishi;
- ✓ Katta qishloqlar - 3000 – 5000 kishi;
- ✓ Yirik qishloqlar - 5000 kishidan ziyod.

Ammo, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyuldagi PQ-120-sonli qarori talablariga asoslangan holda 2009-yilda aholisi kamida 2000 kishi va undan ziyod bo`lgan qishloqlar shaharchalar guruhiga o`tkazildi.

Qashqadaryo viloyatida 2009-yilgacha 1064 ta qishloq, 12 ta shahar va 4 ta shaharcha bo`lgan; 2009-yilda Vazirlar mahkamasining qarori bilan yirik qishloqlarga shaharcha maqomi berilshi munosabati bilan 945 ta qishloq, 12 ta shahar va 123 ta shaharcha (shahar tipidagi posyolka) hosil bo`ldi (12-jadval). Qashqadaryo viloyatida 2010-yilning boshida 945 ta qishloq, 12 ta shahar va 123 ta shaharcha (shahar tipidagi posyolka) mavjud. Qishloq aholisining umumiy soni 2009-yilning boshida 1 892,4 ming kishini tashkil etadi.

Ma`lumki, aholi manzilgohlari - aholi faoliyatining asosiy mashg`ulot maskanidir. Mamlakat va uning regionlarida industrial taraqqiyot, unda yashaydigan aholi tarkibi va miqdori bilan belgilanadi. Masalan industriya sanoati

sust rivojlangan mamlakatlarda qishloq aholisi- asosiy, aksincha industrial taraqqiyotga erishgan mamlakatlarda shaharliklar soni kup buladi.

Qashqadaryo viloyatida o'tgan asrning 70-yillargacha industrial taraqqiyotning o'ta past bo'lishi sababli uning aholisi tarkibida qishloqliklar ko'pchilikni tashkil qilgan. 70-yillardan keyin Qarshi cho'lini o'zlashtirish va yer osti zahiralaridan foydalanish sababli biroz industrial taraqqiyot jonlandi. Bu aholining yashash sharoiti va tarkibiga ta'sir qildi. Natijada viloyat aholisining 1959-yilda 86,7 %ini, 2006-yilda 75,4 %ini, 2010-yilda 43,4%ini qishloq aholisi tashkil etgan(-jadval).

Hozirgi davrda jahonda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan urbanizatsiya jarayoni, shu jumladan O'zbekiston hayotida shaharlar mavqei ortib borishiga qaramasdan, mamlakatimizning 63,9 %, janubiy viloyatlarning 75,4% aholisi qishloq joylarida istiqomat qilishmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Hammamizni boqadigan, ozuqa beradigan soha – qishloq xo'jaligi tarmog'idir. ...Farovon hayot qurmoqchi ekanmiz, oldimizga xalq turmushini yaxshilash... avvalo qishloq xo'jaligi, qishloq hayoti sohasidan boshlashimiz zarur". Chunki hozirgi paytda mamlakatimizdagi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolar aksariyat hollarda qishloqlar bilan bog'liq. Shuning uchun qishloqlarni ilmiy o'rganish - davrning eng dolzarb masalasidir.

Qishloqlarning shakllanishi va rivojlanishi hududning tabiiy- iqtisodiy sharoitiga, qishloq xo'jaligining joylashishiga, transport va milliy iqtisodiyot tarmoqlariga bog'liq. Shunday ekan, Qashqadaryo viloyati qishloq muammosining yechimi uchun tabiiy-iqtisodiy geografik jihatdan yetarli imkoniyatlarga ega. Ayniqsa iqlimiy sharoiti qishloq xo'jaligida sug'orma va lalmikor dehqonchilik, sabzavot-polizchilikni rivojlantirish uchun qulay. Bu tarixiy davrlarda aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanib kelishiga ta'sir etgan. Binobarin Qashqadaryo viloyatidagi aholi manzilgohlarining 87,5 %ini qishloqlar tashkil etadi. hisoblanadi. Qolgan 12,5 %i shahar manzilgohlaridir.

Qarshi cho`lini o`zlashtirishi bilan qishloq aholisining soni yana tez ortdi. Bunda viloyat qishloq aholisining 1959-1996 yillarda o`rtacha yillik ko`payish sur`ati 5,60%ni va 1989-1996 yillarda esa 3,52%ni tashkil qilgan. Bu ko`rsatkichlar mamlakatimizda 3,26% va 2,98%ni, Surxondaryo viloyatida 6,08 va 3,52%ga teng bo`lgan. Umuman viloyat qishloq aholisining o`sish sur`ati bo`yicha mamlakatda Surxondaryodan keyin ikkinchi o`rindadir. Lekin mamlakatimizda va uning ko`pchilik viloyatlarida 1990-yillardan boshlab qishloq aholisining o`sish sur`ati shaharliklarga nisbatan ortib bormoqda. Buning oqibatida 1959-yilda viloyatdagi qishloq aholisining soni 441 ming kishini tashkil etgan bo`lsa, 2007-yilda bu ko`rsatkich 1892,4 ming kishiga yetdi.

Kelajakda mamlakatimizda sanoat korxonalari asosan qishloq joylarda quriladi. Bu yaqin o`n yillarda qishloqlarda urbanizatsiya jarayonini rivojlanishiga sezilarli ta`sir etadi. Bu qishloq aholisining ko`payishi umumiy aholi tarkibida ham ijobiy o`zgarishlarga olib keladi. Natijada hozir aholisi 3000 kishidan ortiq aholi yashaydigan qishloqlar shaharchalariga va shaharlarga aylanishi mumkin(7-jadval).

8-jadval.Qashqadaryo viloyati qishloq aholi manzilgohlarining aholi soni bo`yicha guruhlanishi

T/r.	Qishloq aholi manzilgohlari aholi soni bo`yicha kishi	Qishloq aholi manzilgohlari		Aholisi	
		soni	%	kishi	%
1	250 kishigacha	46	4,4	7693	0,5
2	251-500 kishi	129	12,3	51284	3,6
3	501-1000 kishi	310	29,6	230546	15,9
4	1001-2000 kishi	369	35,3	515064	35,6
5	2001-3000 kishi	105	10,1	255893	17,7
6	3001 va undan ortiq kishi	87	8,3	386418	26,7
	JAMI:	1046	100,0	1446898	100,0

Qashqadaryo viloyati aholisining tarkibida qishloq aholisi barcha davrlarda shahar aholisiga nisbatan doimo yuqori bo`lgan. Shuningdek, qishloq aholisining tabiiy o`sishi ham ko`proq bo`lgan. 1990-yilda qishloqlarda 1210,7 ming kishi istiqomat qilgan bo`lsa, bu ko`rsatkich 2000-yilda 1615,7 ming kishini, 2006-yilda

esa 1823,1 ming kishini tashkil etgan, ya`ni 2006-yilda qishloq aholisining salmog`i viloyat aholisining 75,4 % ini tashkil etdi.

Shuningdek, aholining tabiiy o`sishi ham qishloqlarda ko`proq bo`lgan. 1990-yilda qishloqlarda 1210,7 ming kishi istiqomat qilgan bo`lsa, bu ko`rsatgich 2000-yilda 1615,5 ming kishini, 2006-yilda esa 1859,0 ming kishini tashkil etgan, ya`ni 2006-yilda qishloq aholisining salmog`i viloyat aholisining 75,4 % ini tashkil etdi. Viloyatda seraholi 119 ta qishloqqa shaharcha maqomi berilgach, viloyat qishloq aholisining soni 1455,7 ming kishini yoki 57,7% ni tashkil etdi.

8-jadval. QASHQADARYO VILOYATI TUMANLARIDA AHOLINING SONI VA O`RTACHA ZICHLIGI

2010 yil bo`yicha

№	Tumanlar	Umumiy yer maydoni, ming kv.km	Aholi, ming kishi			Aholining o`rtacha zichligi, 1 km ² / kishi
			Jami	Shahar aholisi	Qishloq aholisi	
1	Dehqonobod	4,0	120,0	22,6	97,4	30,0
2	Kasbi	0,7	154,5	59,8	94,7	220,7
3	Kitob	1,8	218,4	83,5	134,9	121,3
4	Koson	1,8	230,6	117,4	113,2	128,1
5	Mirishkor	3,1	96,3	37,0	59,3	31,0
6	Muborak	3,1	70,8	56,0	14,8	22,8
7	Nishon	2,1	113,6	68,3	45,3	54,0
8	Chiroqchi	2,8	323,2	77,1	246,1	115,4
9	Shahrisabz	1,7	306,5	162,7	143,8	180,2
10	Qamashi	2,6	216,7	51,7	165,0	83,3
11	Qarshi	0,9	198,2	71,2	127,0	220,2
12	G`uzor	2,6	164,6	40,0	124,6	63,3
13	Yakkabog`	1,3	215,4	68,7	146,7	165,6
	Qashqadaryo viloyati	28,6	2671,0	1158,2	1512,8	93,4

Aholi soni bo`yicha viloyatda Chiroqchi tumani oldinda turadi (2001-yilda 257 ming kishi, 2009-yilda 311,4 ming kishi). Bu tumanda viloyat aholisining 12 %i istiqomat qiladi. Shahrisabz tumanining aholisi (Shahrisabz shahrini qo`shib hisoblaganda) 2009-yilda 297,8 ming kishi tashkil etadi. Chiroqchi va

Shahrisabz tumanlarida viloyat aholisining qariyb 1/4 qismi yoki 23,5 %i istiqomat qiladi. Chiroqchi tumanida aholining o`rtacha zichligi har 1km² ga 110,3 kishi, Shahrisabz tumanida esa 173,5 kisini tashkil etadi (8-jadval).

Qishloq tumanlari orasida aholi soniga ko`ra yuqorida nomlari qayd qilingan tumanlardan keyin uchinchi o`rinda Koson tumani (2009-yilda 223,3 ming kishi) turadi. Tumanda aholining o`rtacha zichligi har 1 km<sup>2</sup> ga 122,9 kishi bo`lib, viloyatda bu ko`rsatkich bo`yicha Kasbi (212,7 kishi), Qarshi (209,5 kishi), Shaqhrisabz (173,5 kishi) va Yakkabog` tumanlaridan keyingi beshinchi o`rinda turadi.

Aholi soniga ko`ra Koson tumanidan keyingi o`rinni aholisining soni 116,8 ming (2009- yil) bo`lgan Kitob tumani band etgan bo`lib, tuman aholisining qariyb 20%i tumanning ma`muriy markazida – Kitob shahrida istiqomat qiladi.

Qamashi va Yakkabog` tumanlarida mutanosib ravishda 207,8 ming va 207,4 ming kishi istiqomat qiladi. Ammo maydomiga ko`ra Qamashi tumanidan (2,6 ming km²) ikki marta kichik bo`lgan Yakkabog` tumanida (1,3 ming km²) aholining o`rtacha zichligi (har 1 km² ga 159,8 kishi) ikki baravar ziyod.

Qashqadaryo viloyatining maydoniga ko`ra eng katta – Dehqonobod (4,0 ming km²), Mirishkor (4,0 ming km²) va Nison (4,0 ming km²) tumanlarining demografik saloxiyati nisbatan kichik. Dehqonobod tumanida 115,3 ming kishi, Mirishkor tumanida 92,0 ming kishi va Nishon tumanida 68,7 ming kishi yashaydi. Shunday qilib, viloyatning toq`li va cho`l hududlaridagi tumanlar eng kam aholi yashaydigan tumanlardir.

Viloyatda aholi salmog`iga ko`ra G`uzor (164,6 ming kishi), Kasbi (154,5 ming kishi), Qarshi (198,2 ming kishi) tumanlari o`rtacha ko`rsatkichga ega. Ayni vaqtda Qarshi (0,9 ming km<sup>2</sup>) va Kasbi (0,7 ming km<sup>2</sup>) tumanlarining yer maydonining kichikligi sababli aholi zichligi viloyat darajasida eng yuqori ko`rsatkichga ega (tegishlicha 220,2 va 220,7 kishi 1 km² ga).

Umuman olganda, yuqori mintaq (Shahrisabz, Yakkabog` va Kitob tumanlari) ko`p jihatdan Respublikamizning aholisi zich voha va vodiylariga

o`xshab ketadi. Ammo, ta`kidlash joizki, zichlik, qo`yi mintaqaning ayrim tumanlarida (Kasbi, Qarshi) ham ancha yuqori, ya`ni 190-200 kishiga teng.

9-jadval. Qashqadaryo viloyati qishloq tumanlarining urbanizatsiya va shahar joylar bilan ta`minlanganlik darajasi

№	Tuman	Maydoni (ming km ²)	Jami aholi (ming kishi)	Shu jumladan		Urbanizatsiya Darajasi (%)	Shahar joylar soni	Shahar joylar Zichligi, (ming km ² /ga)
				sahar	qishloq			
1	Dehqonobod	4,0	117,5	22,2	95,3	18,9	3	0,8
2	Kasbi	0,7	151,7	58,8	92,9	38,7	9	12,8
3	Kitob	1,8	214,0	82,1	131,9	38,4	14	7,8
4	Koson	1,8	225,7	114,7	111,0	50,8	15	8,3
5	Mirishkor	3,1	94,0	36,0	58,0	38,3	3	1,0
6	Muborak	3,1	69,5	55,0	14,5	79,1	6	1,9
7	Nishon	2,1	110,8	66,4	44,4	59,9	11	5,2
8	Qamashi	2,6	212,0	50,6	161,4	23,9	6	2,3
9	Qarshi	1,0	193,4	69,1	124,3	35,7	18	18,0
10	Yakkabog`	1,3	211,3	67,6	143,7	32,0	15	11,5
11	G`uzor	2,6	161,8	39,3	122,5	24,3	6	2,3
12	Shahrisabz	1,7	300,5	159,9	140,6	53,2	20	11,7
13	Chiroqchi	2,8	315,6	75,8	239,8	24,0	9	3,2
	Biloyat bo`yicha	28,6	117,5	1135,7	1480,3	43,4	135	6,1

Qishloq tumanlari orasida aholi soniga ko`ra yuqorida nomlari qayd qilingan tumanlardan keyin uchinchi o`rinda Koson tumani (2009-yilda 223,3 ming kishi) turadi. Tumanda aholining o`rtacha zichligi har 1 km<sup>2</sup> ga 122,9 kishi bo`lib, viloyatda bu ko`rsatkich bo`yicha Kasbi (212,7 kishi), Qarshi (209,5 kishi), Shaqhrisabz (173,5 kishi) va Yakkabog` tumanlaridan keyingi beshinchi o`rinda turadi.

Aholi soniga ko`ra Koson tumanidan keyingi o`rinni aholisining soni 116,8 ming (2009- yil) bo`lgan Kitob tumani band etgan bo`lib, tuman aholisining qariyb 20%i tumanning ma`muriy markazida – Kitob shahrida istiqomat qiladi.

Qamashi va Yakkabog` tumanlarida mutanosib ravishda 207,8 ming va 207,4 ming kishi istiqomat qiladi. Ammo maydomiga ko`ra Qamashi tumanidan (2,6 ming km²) ikki marta kichik bo`lgan Yakkabog` tumanida (1,3 ming km²) aholining o`rtacha zichligi (har 1 km² ga 159,8 kishi) ikki baravar ziyod.

Qashqadaryo viloyati miqyosida aholi zichligi Qarshi qo`shib hisoblamaganda har km kv ga 93,4 kishiga to`g`ri keladi. O`z navbatida Qashqadaryo viloyati aholi zichligi bo`yicha Respublikada Farg`ona vodiysi, Toshkent va Samarqand viloyatlaridan keyingi o`rinda turadi.

Qashqadaryo viloyatida o`tgan asrning 70–yillariga qadar ham kichik qishloqlar ko`pchilikni tashkil etgan. Qarshi cho`lini o`zlashtirish va sug`orish hamda yer osti boyliklaridan foydalanish darajasining oshishi, ishlab chiqarishning rivojlanishiga bog`liq holda qishloqlarning yiriklashuvchi sodir bo`ldi. Ikkinchidan, tog` hududidagi kichik qishloqlardan aholining Qarshi cho`liga ko`chirilishi, suv omborlari o`rnidagi qishloq aholisining boshqa hududlarga o`tishi ta`sirida bo`ldi. Shu bois Qarshi cho`lida yangi qishloqlar tashkil topdi. Ammo viloyat miqyosida qishloqlarning soni ko`paymadi, aksincha kamayib bordi. 1970 yilda viloyatda 1 211 ta qishloq bo`lgan, 1979-yilda esa qishloqlarning soni 1 014 tani, 1989-yilda 1 080 tani tashkil etgan. 2005-yil ma`lumotlariga ko`ra viloyatda 1 064 ta qishloq mavjud.

Qishloqlar sonining kamayishi, shuningdek, shaharlar bilan tutashgan qishloqlarning shaharlarga qo`shilishi bilan ham bog`liq. 1979 – 1992-yillarda 33 ming qishloq aholisi qishloqlarni shaharlar tarkibiga kiritilishi munosabati bilan shahar aholisi maqomini olgan. Shu yillarda Qarshi shahriga yaqin atrofdagi 17 ta qishloq (Aralovul, Arabxona, Qavali, Xudoyzot, Tutak, Yakkabog`, Kamandi va b. qishloqlar); Chimqo`rg`on, Pachkamar va Hisorak suv omborlarining barpo etilishi munosabati bilan ularning o`rnidagi qishloq ko`chirilgan edi. Shuningdek, Shahrisabz shahriga 15 ta qishloq va Kitob shahriga 3 ta qishloq qo`shilgan va Kitob shahriga 3 ta qishloq qo`shilgan edi. Shu tufayli 31 ta qishloq yangi hududlarda shakllandi. Qarshi cho`lida Mirishkor tumanida Chamanzor, Navbahor, Guliston, Obod, Cho`lquvar; G`uzor tumanida Sho`rtan, Chilgiz va 8–Mart; Qamashi tumanida Guliston, Mirzadala; Qarshi tumanida Bog`obod, Yangiobod, Haqiqat; Koson tumanida Gulbog`; Muborak tumanida Yangier, Gulshan, Zarbuloq; Nishon tumanida Oydin, Do`stlik, Nuriston, Ko`chatzor, Navro`z, Oq

oltin, Paxtakor, Yulduz, Shirinobod, Guliston; Chiroqchi tumanida Navro`z va boshqa qishloqlar shakllandi. Shuningdek, yangi sug`orish inshootlari asosida chorvachilikka ixtisoslashgan xo`jaliklarning paxtachilikka ixtisoslashuvi tufayli ariqlar (kanallar) yoqasida yangi qishloqlar shakllandi va eskilari yiriklashdi.

Viloyatda yer osti tabiiy boyliklarining ochilishi va foydalana boshlashi, bir qator transport infratuzilmalarining – Qarshi, Yakkabog`, Qamashi – Chiroqchi, Qamashi – Langar, Qarshi – Samarqand, Qarshi – Buxoro avtotransport yo`llari hamda Qarshi – Amudaryo, Qarshi – Samarqand temir yo`llarining ishga tushirilishi; G`uzor – Boysun – Qumqurg`on temir yshllarining qurila boshlanishi tufayli kichik qishloqlar yiriklasha bordi. Buning natijasida 1970 – 1989 yillarda qishloqlar soni 121 taga, 1996 – 2004 yillarda esa 16 taga kamaydi. Ammo, viloyat qishloqlarida aholining soni 1970 – 1989 va 1996 – 2004-yillarda tez o`sdi. 1970-yilda har bir qishloqda o`rtacha 552,8 kishi yashagan bo`lsa, 1979-yilda 808,7 kishi va 1989-yilda 1098,8 kishi yashaydi hozirgi paytda viloyatdagi qishloqlarning yiriklashuvi va yangi qishloqlarning shakllanishi bilan qishloqlar orasidagi masofa ham sezilarli o`zgardi. Masalan, 1989 yilda viloyatning qishloqlari orasidagi masofa 5,4 kmni, 2006 yilda 5,1 kmni tashkil qildi. Demak, viloyatning Kitob, Shaxrisabz, Yakkabog`, Qamashi, Chiroqchi, Kasbi, Qarshi tumanlarida qishloqlar zich joylashgan.

Viloyat qishloqlari orasida aholisi 100 va 101 – 500 kishi bo`lganlari tobora kamayib bormoqda. Masalan, keyingi yillarda qishloqlarning yiriklashuvi natijasida ularning soni kamaygan holda, aholi soni 501 – 1000 kishi bo`lgan qishloqlar soni 310 tadan 369 tagacha, aholisi 1001 – 3000 kishi bo`lgan qishloqlar 161 taga, 3000 dan ziyod kishi yashaydigan qishloqlar 36% ga o`sgan. Viloyat tumanlarida qishloqlarning zichligi va ularda yashayotgan aholi soni bir-biridan keskin farq qiladi.

Binobarin, viloyatning tog`li qismida ham kelgusida aholisi 101 – 500 kishilik qishloqlarni saqlab qolish maqsadga muvofiq. Zero, hozirgi paytda ham

tekislik hududlarida aholining rivojlanishi va suv bilan holda aholini joylashtirishda muammolar yuzaga kela boshladi.

Viloyatning tog` hududlarida joylashgan qishloqlarda 101 – 500 kishi yashaydigan qishloqlar ko`proq. Tog` oldi adirlarida Chiroqchi, Qamashi, Yakkabog` tumanlarida 500 – 1000 va 1001 – 3000 kishi yashaydigan qishloqlar ko`pchilikni tashkil etadi.

Qarshi cho`li tumanlarida 1001-5000 kishi, Qamashi, Dehqonobod, Shaxrisabz, Chiroqchi, Yakkabog` tumanlarining tog` rayonlarida 101-500 va 501-1000 kishilik qishloqlar ko`pchilikdir. Umuman, viloyatning tog` zonasida yer zahiralarining iqtisodiy koeffitsiyenti kamligi va suv tanqisligi, transport aloqalarining noqulayligi, yer yuzasining notekisligi tufayli yirik qishloqlar kam, ammo yiriklashuv davom etadi.

Viloyatning ko`pgina qishloqlarida aholining tez ko`payishiga bog`liq holda iqtisodiy imkoniyatlar yil sayin kamaymoqda, ortiqcha mehnat resurslari vujudga kelmoqda. Qishloq aholisi 1000 kishidan, ayniqsa 3000 – 5000 dan ortiq bo`lgan qishloqlar soni ko`payib bormoqda. Bu holat ayniqsa 1996 – 2006-yillarda ancha tezlashdi.

Aholisi 3000-9000 gacha bo`lgan 49 ta qishloqda aholi zichligi 4000-12000 kishiga yaqinlashgan bu yirik qishloqlarda xom-ashyolarni qayta ishlash sanoat korxonalari sezilarli qurilmagan natijada bu qishloqlarda iqtisodiy, sotsial va ekologik holat keskinlashmoqda.

II.3. Shahar aholisi va uning tarkibidagi o`zgarishlar.

Aholi manzilgohlarining ikkinchi asosiy tipini shaharlar hosil qiladi. Xo`jalik hududiy tuzilmasining faol shakllari va unsurlari bo`lgan shaharlar ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish hamda regional rivojlantirish va tartibga solish tizimida muhim mavqega ega. Shahar mehnat faoliyatining qishloq xo`jaligidan

boshqa tarmoqlarida band bo'lgan aholi yashaydigan, odatda qishloqlarga nisbatan katta bo'lgan aholi manzilgohidir.

Shaharlar ijtimoiy mehnat taqsimotining ikkinchi bosqichida, ya'ni dehqonchilikdan hunarmandchilikka va savdonong ajralib chiqishi natijasida vujudga kelgan. Shaharlarning ma'lum bir sohaga ixtisoslashganligi ularning bajaradigan funksiyalarini belgilab beradi. Shunga ko'ra shaharlarning funksional tiplari (poytaxt shaharlar, viloyat markazlari, tuman markazlari, sanoat shaharlari va b.) ajratiladi.

Aholi manzilgohlariga shahar maqomining berilishi bir qancha mezonlarning bajarilishini taqozo etadi. Dunyoning turli mamlakatlarida aholi manzilgohlari shahar deb atash va shaharga aylantirish shartlari turlichadir. Masalan, AQShda aholisining soni 2500 kishidan ortiq barcha aholi manzilgohlari shaharlar qatoriga kiritladi; Frantsiyada aholi soni 2000 kishi, Islandiyada atigi 200 kishi bo'lgan aholi manzilgohi ham shaharga aylantiriladi. Gollandiyada esa shahar bo'lishi uchun aholi soni 20 000 kishidan kam bo'lmasligi kerak.

Shaharning ijtimoiy taraqqiyoti va jahon madaniyati joylashgan markazlar sifatidagi roli benihoya kattadir. Shahar aholisi asosan 3 manba: aholisining tabiiy ko'payishi, migratsiya natijasida va qishloq aholi manzilgohlarining shaharga aylantirilishi asosida ko'payadi.

Mustaqillik yillarida ro'y bergan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy ozgarishlar, eng avvalo, urbanizatsiyaning asosiy korsatkichi bo'lgan shaharlar to'ri va tarkibida namoyon bo'lmoqda. Butun mamalkatimizdagi kabi Qashqadaryo viloyatida shaharlar to'ri so'ngi yillarda kengaydi². O'zbekistonda aholi manzilgohlarini shahar deb atash va shaharga aylantirish uchun 2009-yilga qadar undagi aholining soni 7000 dan kam bo'lmasligi va aholining 2/3 qismi ishchi va xizmatchi va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi kerak edi.

Shaharlarni tavsiflashda ko'proq ularning miqdor ko'rsatkichlariga e'tibor qaratiladi. Binobarin, bunda ularning katta – kichikligi inobatga olinadi. Shaharlar

² 2009-yilda "Qishloq dasturi" doirasida mamlakatyimizning 966 na , shu jumladan Qashqadaryo viloyatida 119 ta qishloq aholi punktiga shaharcha maqomi berildi.

o`z ko`lamiga qarab, eng avvalo, 3 toifaga: katta, o`rta va kichik shaharlarga bo`linadi. Shu nuqtai – nazardan yondashilganda, yirik yoki katta shahar aholisi 100 ming kishidan ortiq, o`rta shaharlarda 50 – 100 ming va kichik shaharlar aholisi 50 ming kishidan kam bo`lishi kerak. Maxsus ilmiy tadqiqotlarda esa shaharlar tasnifi ancha keng turlashgan bo`ladi. Masalan, shaharsozlik va shaharlar geografiyasida shaharlarning kattaligi bo`yicha quyidagicha tasniflash qabul qilingan:

- 50 mingtagacha – kichik shahar;
- 50 – 100 ming – o`rta shahar;
- 100 – 250 ming – katta shahar;
- 250 – 500 ming – yirik shahar;
- 500 – 1000 ming – eng yirik shahar;
- 1 mln dan ortiq – milloner shahar (megapolis).

Shaharlarning va shahar aholisining shakllanishi tarixan qishloq manzilgohlari bilan bo`g`liq. Shaharlarning vujudga kelishi, shakllanishi va tarixiy davrlarda rivojlanishi insoniyat tarixi bilan chambarchas bog`liq. Eng qadimiy shaharlar qadimiy Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy, O`rta Osiyo va O`rta dengizbo`yi mintaqasida vujudga kela boshlagan. Ayrim shaharlar tabiiy yoki siyosiy katalimlar tufayli vayronalarga aylangan. Ulardan ayrimlari “geografik koordinatlari”ni biroz o`zgartirgan holda qayta qad ko`targan va rivojlangan.

Amir Temur davrida Qashqadaryo vodiysida Shahrisabzda noyob va ulkan binolar bunyod etildi. XIX asr oxirida Qarshi va Shahrisabz Qashqadaryoning bosh shaharlari edi. Ammo ma`muriy funksiyalari bo`lmaganligi bois Sharisabz qishloq darajasidagi manzilgoh edi. 1920-yildan keyin rasman shahar hisoblangan G`uzorning shahar maqomi olib tashlandi va shaharcha xiliga o`tkazildi. XX asrning boshida Qarshi shahri aholisining soni shu yillardagi tadqiqotchilar tomonidan 60-70 ming kishi miqdorida baholangan. Ammo haqiqiy raqam 15-18 ming bo`lgan. Darhaqiqat, 1926-yilda o`tkazilgan aholi ro`yxati bu shaharda 15 198 kishi istiqomat qilishini ko`rsatdi. Aholi ro`yxatida qadimiy savdo-

hunarmandchilik manzilgohi bo`lgan Qarshi (Naxshab, Behbudi) shahr tipidagi posyolka sifatida qayd qilindi. 1935-yilga qadar Qadimiy Shahrisabz (Kesh) shahar maqomiga ega edi. Ammo, keyinroq shahar tipidagi posyolkaga o`tkazildi va faqat 1958-yildayana qayta shahar maqomiga ega bo`ldi. Qashqadaryo viloyatida shahrlar shahar tipidagi posyolkalarning shaharga o`tishi (Qamashi) yoki bevosita qishloqlar negizida (Muborak, Koson, Guzor, Beshkent) vujudga kelgan.

Qashqadaryo viloyatida 1970-yilga keyin bir qator shaharlar vujudga keldi, shaharlarning soni esa; marta ko`paydi. Bu davrda shaharlarning vujudga kelishi gaz konlarining, Qarshi cho`lida yangi yerlarning o`zlashtirilishi, suv xo`jaligi qurilishi va tayanc markazlari tarmoqlarining yaratilishi bilan bog`liq bo`lgan regional rivojlanish xususiyatlarini ifodalaydi. Qarshi bosh kanalida nasos stansiyalari kaskadi va ulkan suv ombori negizida Talimarjon shahri vujudga keldi. Yosh sanoat markazi bo`lmish Muborakning shakllanishi tabiiy gaz qazib olish va yangi gaz-kimyoo sanoatini boshlab bergan mamlakatimizdagi birinchi gazni qayta ishlash zavodining qurilishi tufaylidir. Kitob, Qamashi, Yakkabog` va Koson o`zlarining tuman hosil qiluvchi funksiyalari va shahar hosil bo`lishi salohiyatining mustahkamlanishi tufayli shahar maqomiga ega bo`lishdi. Bu davrda, shuningdek bir qancha (Yangi Nishon, Chiroqchi va Qashqadaryo) shahar tipidagi posyolkalar ham vujudga keldi. Biroz keyinroq tuman markazlari bo`lgan Yangi Nishon va Chiroqchi shahar maqomiga ega bo`ldi, Hisorak suv ombori quruvchilarining posyolkasi shahar posyolkasiga aylandi.

O`tgan asr 80-yillarining oxirida Dehqonobod va Eski Yakkabog` shahar tipidagi posyolka maqomini oldi. 1992-yilda viloyatda istiqlolning dastlabki shahar tipidagi posyolkasi – Nuriston shaharchasi vujudga keldi.

O`rta Osiyodagi, xususan Qashqadaryo vodiysidagi shaharlarning barchasi qishloq aholi manzilgohlari negizida shakllangan va shakllanmoqda. Ayni paytda qishloq aholisiva uning joylashuvi o`z navbatida iqlim sharoitlariga va suv resurslariga bo`g`liq. Zero, butun O`rta Osiyodagi kabi Qashqadaryo vodiysida ham obikor dehqonchilik qishloq aholisining qishloq xo`jalik ishlab chiqarishining

asosini tashkil etgan. Obikor dehqonchilik inson faoliyatining eng qadimiy shakllaridan biri bo'lgan. Viloyatdagi shahar va shaharchalarning aksariyat katta qismi katta-kichik daryolarning uzanlariga juda yaqin quyi terassalarda joylashgan. Keyingi yillarda yangi yerlarning o'zlashtirilishi va sug'orilishiga bog'liq holda shakllangan shaharchalar ham ariqlar (kanallar) yoqasida joylashgan. Qashqadaryo viloyatida shaharlarning tarkib torishi va rivojlanishi o'ziga xos tarixiy – demografik xususiyatlarga ega. Temir davrida (meloddan avval VIII – VI asrlar va undan keyingi davrlar) dehqonchilik maydonlarining kengayishi va aholi joylashishining ustivor shakli bo'lgan qishloqlarining ko'payishi bilan bir paytda shaharlar vujudga keladi va rivoj topa boshlaydi. 2700 yilligi nishonlangan Shahrisabz (qadimgi Kesh) va Qarshi (qadimgi Bolo, Naxshebolo, Nahshab, Nasaf; 1926 – 1937 yillarda Behbudiy) shaharlariga shu davrlarda asos solingan. Bu shaharlar nafaqat Markaziy Osiyodagi, balki, jahondagi eng ko'hna shaharlar jumlasiga mansub bo'lib, ular qo'rg'on – shaharlar sifatida vujudga kelgan. Arxeologik tadqiqotlar Kesh shahri hozirgi Uzunquduq, Nasaf shahri esa Yerqo'rg'on o'rnida bo'lanligini ko'rsatadi. Bu shaharlar ancha katta maydonni band etgan. R.X. Sulaymonovning tadqiqotlariga ko'ra (1997), Uzunqur 7 ga, Yerqo'rg'on 150 ga maydonni band etgan.

Kitob shahri Kesh va Nasaf shaharlaridan keyinroq vujudga kelgan.

Ma'lumki, shaharlar turli omillar va sharoitlar ta'sirida vujudga keladi va rivojlanadi. O'tmishda ular siyosiy, iqtisodiy, diniy markazlar va shuningdek, mudofaa va strategik ahamiyatga ega bo'lgan qo'rg'onlar sifatida vujudga kelgan. Binobarin, iqtisodiy va siyosiy jihatdan erishilgan bog'liq holda shahar hosil qiluvchi omillarning ahamiyati turlicha bo'ladi. Masalan, savdo va hunarmandchilik ilgari shaharlarning vujudga kelishining muhim omillari bo'lgan bo'lsa, keyinchalik sanoat, transport, ma'muriy boshqaruv shahar hosil qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shuningdek, muayyan tabiiy va tarixiy omillar ta'sirida shaharlarning egallagan joyi, nomi o'zgaradi, ba'zan esa batamom tanazzulga

uchraydi, baʼzi hollarda “shahar” maqomini yoʻqotadi. Zero “shahar” maqomi turli davrlarda turlicha belgilar asosida berilgan.

Qashqadaryo vohasidagi Shahrisabz, Gʻuzor va Kitob shaharlari faqat XX asrning turli yillarida “shahar”, “shaharcha (shahar tipidagi posyolka)” va “qishloq” maqomlariga ega boʻlishgan.

XX asrning boshida Qarshi, Shahrisabz va Gʻuzor Qashqadaryo vohasidagi eng asosiy shaharlar boʻlgan. Ammo XX asrning yirigmanchi – oʻttizinchi yillarida sobiq Ittifoqda shaharlarni chngi talablar asosida tartibga solish amalga oshiriladi. Shu sababli mazkur talablarga javob bera olmasligi tufayli, Shahrisabz va Gʻuzor qishloq yoki shaharcha (shahar tilidagi posyolka) maqomiga ega boʻlgan Shahrisabz tumanidagi posyolka toifasiga oʻtkazildi va faqat 1958 yilda yana shahar maqomiga ega boʻldi.

Qashqadaryo vohasida yangi shaharlarning vujudga kelishi XX asrning 70–yillarida suv xoʻjaligi, energetika, sanoat va transport qurilishi hamda qishloq xoʻjaligi uchun yangi yerlarning oʻzlashtirilishi bilan bevosita bogʻliq. Bu davrda Qamashi, Muborak, Koson, Gʻuzor, Beshkent, Kitob, Yakkabogʻ, Talimarjon shaharlari hamda yangi Nishon, Chiroqchi va Qashqadaryo shaharchalari vujudga keldi. Keyinroq Yangi Nishon va Chiroqchi tumani markazlari sifatida shahar maqomiga, Miroqi qishlogʻi esa shaharcha maqomiga ega boʻldi. 1989-yilda oʻtkazilgan aholi roʻyxatidan keyin Dehqonobod va Eski shahar, yaʼni Yakkabogʻ ham shaharchalar qatoriga kiritildi. Bu davrda viloyatda shaharlar soni 4 marta koʻpaydi. Shaharlarning koʻpayishi Qarshi choʻlidagi gaz konlarini yangi yerlarini oʻzlashtirish, suv xoʻjaligi qurilishi hamda tayanch markazlar tarmoqlarining barpo etilishi bilan bogʻliq. Qarshi bosh kanalida nasos stantsiyalari va suv omborlarining qurilishi negizida Talimarjon shahri, gaz qazib olish va mamlakatimizda eng yirik gazni qayta ishlash zavodining barpo etilishi tufayli Muborak shahri, vujudga kelishi, ularning tuman hosil qiluvchi funktsiyalari va shahar hosil qiluvchi salohiyati bilan bogʻliq mamlakatimizning mustaqillik yillarida Chiroqchi ham tumanga boʻysunuvchi shahar maqomiga ega boʻldi.

Shahar va sharchalarning ko`payishi bilan viloyatda shahar aholisi ham yuqori sur`atlar bilan o`sdi

10-jadval. QASHQADARYO VILOYATINING SHAHAR AHOLISI

Shahar manzilgoglari toifasi	1989				2009			
	soni	%	aholi, ming kishi	%	soni	%	aholi, ming kishi	%
Barcha toifadagi shahar manzilgohlari	15	100,0	413,4	100,0	135	100,0	1110,2	100,0
Shu jumladan aholisi:								
100 ming va undan ziyod	1	6,7	154,7	37,4	1	0,7	233,9	21,1
50-100 ming	1	6,7	52,5	12,7	2	1,5	158,7	14,2
20-50 ming	3	20,0	91,5	22,1	6	4,4	168,8	15,2
10-20 ming	6	40,0	89,6	21,7	8	5,9	106,9	9,6
10 mingacha	4	26,6	25,1	6,1	118	87,5	441,9	39,9

Uzoq vaqt davomida urbanizatsiya darajasining pastligi obikor dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining ustunligi, sanoatning nisbatan rivojlanmaganligi, tub aholi vakillarining qishloqlarda yashashni afzal ko`risrishiga bog`liq bo`ldi.

Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiyaning 1999-yilgi eng umumiy miqdor ko`rsatkichi - shahar aholisining ulushi 25,7% ni, 2001-yilda 25,4 % ni, 2004-yilda 25,1% ni tashkil etdi. 2009-yilga qadar viloyatda 12 ta shahar va 4 ta shaharcha bo`lgan, shaharlardan 1 tasi yirik, 2 tasi o`rta va 9 tasi mayda shaharlar toifasiga mansub edi. Viloyatdagi shahar aholisining 52,7% iga yaqini Qarshi (214,3 ming kishi) va Shahrisabz (91,5 ming kishi) shaharlariga to`g`ri keladi. Qashqadaryo viloyati shahar aholisining salmog`I bo`yicha viloyatlar orasida oxirgi o`rinlardan birini egallar edi. Bunday hol viloyatda sanoat ishlab chiqarishining ancha sustligi bilan bog`liq edi. 1926-2004-yillar davomida viloyatda shahar aholisining ulushi 8,8% dan (1926-y.) 25,1% ga (2004-y.) ko`paydi.

Mamlakatimiz hukumati tomonidan urbaizatsiya jarayonlarini takomillashtirish yuzasidan qator islohatlar amalgam oshirilmoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyuldagi “O`zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma`muriy – hududiy tuzilishini yanada takomillashtirish chora –

tadbirlari to'g'risida'gi PQ-120-sonli maxsus qarorida ko'rib chiqilgan edi. Qarorga muvofiq, aholishunoslik masalalari va BMT talablariga mos holda shahar va qishloq aholi manzilgohlarini to'g'ri hisobga olishni ta'minlash asos qilib olingan. Bu qarorda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatalari viloyat Kengashlariga qishloq aholi punktlarini ro'yxatdan o'tkazish va zarur hollarda, amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq, ularning maqomini o'zgartirish (shaharchalar toifasiga kiritish) bilan bog'liq tegishli iqtisodiy-huquqiy masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish tavsiya etilgan edi³. Bu qaror talablariga muvofiq sanoat korxonalari, qurilishlar, temir yo'l stansiyalari va boshqa muhim obektlar yaqinida joylashgan aholisi kamida 2000 kishi va undan ziyod bo'lgan qishloqlarni organib, shaharsozlik talablariga mos aholim manzilgohlarini shaharchalar toifasiga o'tkazish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi ko'rsatilgan edi. Prezidentning mazkur qarorini amalga oshirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2009-yil 13-martdagi 68-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorini qabul qildi. Bu qarorga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatalari viloyat Kengashlari tomonidan ayrim qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berildi. Mamlakatimiz bo'yicha jami 966 ta qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berildi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida 119 ta qishloq shaharcha maqomini oldi. Bu ko'rsatkich mamlakatimizda yangi tashkil etilgan shaharchalarning 12,3% ini tashkil etadi. Pirovardida Qashqadaryo viloyatidagi shaharchalar soni 122 taga yetdi, umuman shaharlar soni esa 135 taga yetdi va mamlakatimiz shaharlar geografiyasida Qashqadaryo viloyati shaharlar salmog'i yuqori bo'lgan Farg'ona (215 ta), Namangan (128 ta) va Surxondaryo (122 ta) viloyatlari guruhidan o'rin oldi. Shunday qilib, 2009-yilda (2010-yilda ham) viloyatda shaharchalarning viloyatdagi umumiy soni 122 taga yetdi (9,10-jadvallar). 2010-yilda Qashqadaryo viloyatida shahar bilan ta'minlanganlik

³ O'zbekiston Qonun xujjatlari to'plami. T., 2005-yil, iyul, № 28-29.

darajasi har 1000 km² ga 4,7 (O'zbekistonda 2,7) gat eng. Viloyat tumanlarining shaharlar bilan ta'minlanganlik darajasi yuda xilma-xil. Chunonchi, Qarshi (18,0) va Kasbi (12,8) tumanlari oldinda tursa, Dehqonobod (0,8), Mirishkor (1,0), Muborak (1,9), Qamashi (2,3) va Guzor (2,3) tumanlari past ko'rsatkichlarga ega.

Qashqadaryo viloyatidagi shahar manzilgohlaridan faqat Qarshi shahri katta shaharlar gururhiga, Shahrisabz va Koson shaharlari o'rta shaharlarga mansub.

Hozirgi paytda viloyatda shaharchalar salmog'iga ko'ra Shahrisabz (19 ta), Qarshi (15 ta) Yakkabog' va Koson (har birida 14 ta dan) va Kitob (13 ta) tumanlari oldingi o'rinlarni band etadi. Ayni paytda Qamashi, G'uzor, Mirishkor va Dehqonobod tumanlarida 2 tadan 5 tagacha qishloq manzilgohlari shaharcha maqomiga ega bo'ldi.

Qashqadaryo viloyatida aholisi soni 10 mingdan ziyod bo'lgan shaharchalar toifasiga Maymanoq, Ayritom, Qarliq, Mirishkor, Fazli, Pomuq, aholisi 5-10 ming kishi bo'lgan shaharchalar toifasiga 24 ta shaharcha (Nishon, Guvalak, Po'lati, Xitoy, Qatag'an, navruz, Samarqand va boshqalar) kiradi va viloyatdagi shaharchalarning 1/5 qismini tashkil etadi. Jami aholisi 123,1 ming kishi bo'lgan 33 ta shaharcha aholisi 3,0-4,9 ming kishi bo'lgan shaharchalar toifasiga, 66 tasi esa aholisi 2,0-2,9 ming kishi bo'lgan shaharchalar toifasiga kiradi.

11-jadval. Qashqadaryo viloyatidagi yangi shaharchalarning soni

№	Tuman	Jami shaharcha	Aholisi		
			10000 dan ziyod	5000-10000	2000-5000
1	Dehqonobod	2		1	1
2	Kasbi	9	2	2	5
3	Kitob	14			14
4	Koson	14		2	12
5	Mirishkor	3	2	1	
6	Muborak	5	1	1	3
7	Nishon	8		3	5
8	Qamashi	5			5
9	Qarshi	15		1	14
10	G'uzor	5			5
11	Yakkabog'	13			13
12	Shahrisabz	18		1	17
13	Chiroqchi	8		6	2
	Viloyat	119	5	18	96

Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyatida 4 ta turli kattalikdagi shahar va 123 ta shaharcha (shahar tipidagi posyolka) mavjud. 2006-yilning boshida Qashqadaryo viloyatining aholisi 2464,4 ming kishi bo`lib, shundan 605,4 ming kishini shaharliklar tashkil etardi. 2009-yilda esa shahar aholisining soni 2565,9 kishini va shahar aholisi (1110,2 ming kishi) viloyat aholisining 43,3 %ini tashkil etdi. Viloyatda shahar aholisi 1979-1991-yillarda qariyb 158% ga, 1991-1999-yillarda 122,5% ga va 1999-2008-yillarda 112,4% ga ko`paydi. Shahar aholisining o`sinh sur`atlarining dinamikasi 1999-2008-yillarda 1991-1999 yillardagiga nisbatan pasayish tendensiyasiga ega (-jadval).

Pirovardida viloyatda urbanizatsiya (shaharlashuv) darajasi 2009-yilda 43,3% (1997-yilda – 26,0%, 2007-yilda - 24,5%,)ni tashkil etadi. Urbanizatsiya darajasiga ko`ra viloyat mamlakatimiz viloyatlari orasida (Namangan viloyatida - 64,7, Farg`ona viloyatida – 58,8, Qoraqalpog`iston Respublikasida – 50,4, Andijon viloyatida – 53,5, Toshkent viloyatida – 50,1, Navoiy viloyatida – 49,6, Jizzax viloyatida -47,4) 8-o`rinda turadi va mamlakatimizdagi o`rtacha urbanizatsiya darajasidan (51,7) biroz past. Yangi shaharchalarning tashkil topishi viloyat qishloq tumanlarining urbanisatsiya darajasida ham o`z aksini topdi.

Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiya darajasining yuqoriligi bo`yicha Muborak, Nishon, Shahrisabz va Koson tumanlari ajralib turadi. Ayni vaqrtida Qarshi, Yakkabog`, Kitob, Mirishkor va Kasbi singari qishloq xo`jaligiga ixtisoslashgan tumanlarda urbanizatsiyalashuv darajasi 40%ga ham yetmaydi.

Shahar aholisi:

- 75% dan ziyod tumanlar: Muborak (79,0 %);
- 50% dan ziyod tumanlar: Muborak (79,0 %), Nishon (59,0%), Sahrisabz (53,5%), Koson (50,9%);
- 25% dan ziyod tumanlar: Muborak (79,0 %), Nishon (59,0%), Sahrisabz (53,5%), Koson (50,9%), Kasbi (38,8%), Mirishkor (38,0%), Kitob (37,0%), Qarsi (%), Yakkabog` (32,3 %).

Viloyatning o`rtacha ko`rsatkichidan (43,6%) yuqori bo`lgan tumanlar:

- Muborak (79,0 %), Nishon (59,0%), Sahrisabz (53,5%), Koson (50,9%);

Viloyatning o`rtacha ko`rsatkichidan past bo`lgan tumanlarga – tog` va tog` oldi tumanlari – Dehqonobod (18,9 %), Qamashi (23,9), Ciroqchi (24,0) va G`uzor (24,3) turadi.

Yuqorida ta`kidlangandek, Qashqadaryo viloyatida katta shaharlar toifasiga yagona shahar - viloyatning ma`muriy, iqtisodiy va madaniy markazi bo`lgan Qarshi shahri mansub. Qarshi shahri Qashqadaryoning qirg`og`ida, dengiz sathidan 378 m balandlikda joylashgan. Hozirgi paytda Qarshi mamlakatimizdagi yirik temir va avtomobil yo`llari tuguni, sanoat shahri. Hozirgi paytda Qarshi shahri 8 ming ga ni band etgan bo`lib, uning hududi yildan –yilga kengayib bormoqda (1975 yilda – 3371 ga, 2005 7,5 ming ga). Qarshi tarixiy shahar bo`lib, u o`tmishda Bolo, Nashebolo, Naxshab, Nasaf, XIV asrdan boshlab esa hozirgi nomi bilan (1926-1937-yillarda Behbudiy deb) atalgan. Dastlabki shahar Naxshab nomi bilan miloddan avval Yerqo`rg`on o`rnida vujudga kelgan. Qarshi kamida 750-800 yildan buyon Qashqadaryo vohasining markazi sifatida ma`lum. So`ngi bor Qarshi 1926-yil 13-mayda rasmiy ravishda shahar maqomiga ega bo`lgan.

Taqribiy hisoblarga ko`ra 1924-yilda Qarshi shahrida 15-16 ming kishi istiqomat qilgan. Qarshi shahrining aholisi 1959-yilda 33 ming, 1977-yilda esa 95 ming, 1991-yilda 168 ming, 1999-yilda 201,3 ming, 2004-yilda 218,5 ming, 2005-yilda 220,0 ming, 2008-yilda 229,4 ming kishini tashkil etgan va 2009-yilda esa 233,9 ming, 2010-yilda **237,9** ming kishiga yetdi. Hozirgi paytda viloyat shahar aholisining 21 % i (237,9 ming kishi viloyatning eng yirik shahari va markazi bo`lmish Qarshi shahri va Qashqadaryo shaharchasida istiqomat qiladi.

Qarshi - viloyatning eng yirik shahari bo`lib, XX asrning 60-yillardan keyin ayniqsa tez rivojlandi. Bu yerda ko`plab sanoat korxonalari, turar joylar barpo etildi. Qarshi shahri mamlakatimizning umumdavlat ahamiyatiga molik bo`lgan muhim va salohiyatli shaharlar sirasiga kiradi. Zero, Qashqadaryo – mamlakatimizning tabiiy gaz va heft, osh va kaliy tuzlarining katta zahiralari mavjud bo`lgan viloyatidir. Yonilgi-energetika resurslari bilan bir qatorda katta yer

va mehnat resurslarining mavjudligi Qarshi shahrining mamlakatimiz miqyosidagi mavqeni ancha mustahkamlaydi.

12- jadval.QASHQADARYO VILOYATINING SHAHARLARI

Shahar toifasi	Shahar nomi	Aholining soni (ming kishi)									
		1926	1939	1959	1970	1979	1989	2000	2006	2008	2010
Yirik shaharlar 100-500 ming kishi	Qarshi	15.6	15.8	19.7	71.1	107.4	154.7	201.3	224.8	229.4	242,2
O`rta shaharlar: 50-100 ming kishi	Shahrisabz	10.7	12.5	16.4	27.3	36.4	52.4	87.1	91.5	92.7	
	Koson	6.1	5.5	8.4	12.9	28.3	40.6	53.9	60.0	60.5	
20-50 ming kishi	Kitob					18.4	28.5	34.3	37.4	38.0	
	Qamashi					15.6	22.3	30.5	35.0	35.8	
	Muborak					9.2	19.9	23.1	24.5	24.8	
	Yakkabog`					12.0	17.1	21.8	23.7	23.9	
	G`uzor					12.6	17.0	21.3	23.3	23.6	
	Chiroqchi					8.4	13.2	16.6	19.9	20.7	
Mayda shaharlar 10-20 ming kishi	Beshkent					6.0	11.5	14.4	16.4	16.8	
	Eski Yakkabog`					11.2	10.6	10.1	11.7	12.2	
	Yangi Nishon					6.6	7.4	7.6	11.2	11.7	
5 -10 ming kishigacha	Dehqonobod						6.4	7.5	9.0	9.4	
	Talimarjon				4.9	3.9	6.7	8.9	8.6	8.8	
	Miroqi								8.4	8.2	

Qarshi shahrining o`zida 556 ta yirik korxona, 50 ga yaqin hissadorlik jamiyati, mingga yaqin maishiy xizmatko`rsatish, savdo va ovqatlanish korxonalari, 3 ta oily oquv yurti, o`nlab akademik litsey va kasb –hunar kollejlari, madaniy muassasalar va boshqa insootlar voha ahli xizmatida.

Aholisi 50-100 ming kishi bo`lgan o`rtacha shaharlar toifasiga Shahrisabz va Koson shaharlari mansub, ularga viloyat shahar aholisining qariyb 26,4% i (159,9 ming kishi) to`g`ri keladi.

Boy tarixga ega bo`lgan Shahrisabz (qadimiy Kesh) shahri - viloyatning aholi soniga ko`ra o`rta shahar toifasiga mansub shaharlar orasida eng kattasidir. Bu shahar Oqsuv daryosi uzanidan 3-4 km janubroqda dengiz sathidan 650 m

balabdlkda joylashgan. Shahrisabz shahri yaqin yillarda katta shahrlar toifaiga o'tish imkoniyatiga ega. Bu tarixiy shaharning aholisi 96,1 ming kishidan iborat bo'lib, viloyatdagi shahar aholisining 8,65% ini tashkil etadi. Aholi soniga ko'ra Shahrisabz viloyatning ikkinchi katta shaharidir. Shahrisabz yaqin yillarda mamlakatimizning yirik shaharlari toifasiga kirish istiqboliga ega.

13-jadval. Qarshi shahri aholisining tabiiy harakati

	1999	2005	2010
Aholi soni (ming kishi)	201,3		
Tug'ilish (har 1000 kishiga)	19,7		
O'lim (har 1000 kishiga)	4,3		
Tabiiy o'sish (har 1000 kishiga)	15,4		
Nikohlar (har 1000 kishiga)	7,0		
Ajralishlar (har 1000 kishiga)	0,3		

Viloyat shaharlari orasida aholi soniga ko'ra ucninchi o'rinda tuman markazi Koson shahri (60 ming kishidan ziyodroq), to'rtinchi o'rinda Kitob shahri (40,5 ming kishi) turadi.

Viloyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan rivojlantirish zarur bo'lgan mayda shaharlar toifasiga Kitob (37,4 ming kishi), Yakkabog` (35,4 ming kishi), Qamashi (35,0 ming kishi), Muborak (24,5 ming kishi), G`uzor 23,3 ming kishi), Chiroqchi (19,9 ming kishi), Beshkent (16,4 ming kishi), Yangi Nishon (11,2 ming kishi), va Tallimarjon (8,6 ming kishi) shaharlari kiradi va ularda viloyat shahar aholisining atigi 9,0% ga yaqini yashaydi.

Viloyatning 4 ta shaharchasida (Yakkabog`, Miroqi, Dehqonobod, Nuriston) 39,6 ming kishi istiqomat qiladi (-jadval).

Shunday qilib, Qashqadaryo viloyatining yirik Qarshi shahrida viloyatdagi shahar aholisining 37,1 % i, o'rta shaharlarida 26,4 % i va mayda shaharlarida 34,9% i istiqomat qiladi.

Qashqadaryo viloyati shahar aholisi ulushi boyicha mamlakatimizda 8-o'rinda turadi. Bu esa viloyatda sanoat ishlab chiqarishi ancha sustligini ko'rsatadi. 1926-1991-yillar davomida viloyatda shahar aholisining ulushi 8,8% dan (1926)

26,3% ga (1991) ko`paydi. Shu davr ichida mamlakatimizda shahar aholisining ulushi 20,8% dan (1926) 40,3% ga (1991) o`sdi.

2008-yil ma`lumotlariga ko`ra, Qashqadaryo viloyatidagi shahar aholisining soni 459,1 ming kishini tashkil etgan. Katta qishloqlarga shaharcha maqomining berilishi bilab bu ko`rsatkich 2010-yilning boshida 1110,2 ming kishiga yetdi. Hozirgi paytda shahar aholisi viloyat aholisining 43,2 % ini tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyatida urbanizatsiyaning muhim hududiy shakli bo`lgan Qarshi shahar aglomeratsi tashkil topmoqda. Shuningdek, Shahrisabz-Kitob polisentrik aglomeratsiyalar shakllanmoqda.

Sivilizatsiya mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasini ko`rsatib beruvchi indikatorlardan biridir. Urbanizatsiya muayyan huddudda shaharlar va shahar aholisi salmog`ining o`lisi, shaharlar aglomeratsiyasining tarkib topishi va rivojlanishidir. Urbanizatsiya XVIII asrda sanoat inqilobi tufayli tarkib topdi va insofnsi bordi. Hozirgi kunda jahon aholisining qariyb teng yarmi shaharlarda istiqomat qiladi. Urbanizatsiyaning ijobiy tomonlari bilan birga salbiy jihatlari ham ko`p. Shuning uchun urbanizatsiya bilan bog`liq muammolar hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanib ulgurdi.

X U L O S A

Mamlakatimizning janubida joylashgan Qashqadaryo viloyati Surxondaryo viloyati bilan birgalikda umumiy maydoni 48,7 ming km² bo'lgan Janubiy Amudaryo iqtisodiy mintaqasini tashkil etadi (Soliev, 2005). Qashqadaryo viloyatining yer maydoni (28,6 ming km²) iqtisodiy mintaqalar yer maydonining 58,7% ini, mamlakatimiz yer maydonining 6,8% ga yaqini tashkil yetadi.

Qashqadaryo viloyati geografik - demografik jihatdan o'ziga xos hudud. Qashqadaryo viloyati 1920-yilning sentabr oyiga qadar Buxoro amirligi tarkibida bo'lgan. 1920-yilda Buxoro Respublikasi tashkil topgach, Qashqadaryo alohida viloyat sifatida uning tarkibiga kiritiladi. 1924-yilda markazi Qarshi shahri bo'lgan alohida okrug, biroz keyinroq viloyat maqomiga ega bo'ldi. Ammo, 1927-yilda yana Buxoro viloyati tashkil etilgach Qashqadaryo okrug sifatida uning tarkibiga kiritildi va 1943-yilda alohida viloyat sifatida tiklandi.

1926-yilgacha o'tkazilgan aholi ro'yxatida Qashqadaryo viloyati aholisi to'g'risida ma'lumot yo'q. Chunki Buxoro amirligi tarkibidagi viloyatlarda, shu jumladan Qashqadaryo viloyatida ham aholi ro'yxati o'tkazilmagan. Biroq, M. Qoraxonovning (1965 yil) retrospektiv tahlilga asoslangan tadqiqotlariga ko'ra, hozirgi Qashqadaryo viloyati hududining aholisi taqriban 540 ming kishi bo'lib, ulardan 30 ming kishi shaharda yashagan (Qoraxonov, 1965). Ma'lumki, O'zbekistonda 1926-, 1939-, 1959-, 1970-, 1989-yillarda aholi ro'yxati o'tkazilgan.

1926-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, Qashqadaryo viloyatining aholisi 343,5 ming kishini tashkil etgan. 1926 – 1939 yillar mobaynida viloyatda aholining umumiy soni 118,1 ming kishiga ko'paygan yoki aholining yillik o'sishi 2,6% ni tashkil etgan. 1926–1939 yillarda viloyatda ishlab chiqarish kuchlarining kam rivojlanganligi hamda chetdan keladigan aholi harakatining kam bo'lishi tufayli aholining yillik o'sish darajasi mamlakatdagiga nisbatan past bo'lgan. Pirovardida O'zbekiston umumiy aholisiga nisbatan

Qashqadaryo viloyatining tugʻilish surʻatini 7,5% dan (1926-y.) 7,3% ga (1939-y.) kamaytdi. 1939 – 1959 yillarda Qashqadaryo viloyatining aholisi atigi 48,4 ming kishiga koʻpaydi. Aholi koʻpayishining bu yillarda pasayishi urush yillaridagi tugʻilishning kamayishi va urushning oqibatlari bilan bogʻliq. 1959-yilda oʻtkazilgan aholi roʻyxati maʼlumotlariga koʻra viloyatdagi aholi 508,0 ming kishiga yetdi. Viloyat aholisining soni aholi roʻyxati maʼlumotlariga koʻra, 1979 yilda 1 118,7 ming, 1989-yilda 1 596,2 ming kishiga yetdi. Viloyat aholisining soni 1997-yilda 2,0 million kishidan oshdi. Hozirgi paytda (2013-yil 1-yanvar holatiga koʻra) viloyat aholisi 2830,4 kishini tashkil etgan holda shundan 1225,2 kishi (%) shahar, 1605,2 kishi (%) qishloq aholisidir.

Oʻzbekistonda 1989-yilda tugʻilish har ming aholiga 33,3 kishini tashkil etgan boʻlsa, 2002 yil bu koʻrsatkich 21,0 promillega tushib qoldi, yani bu yillarda tugʻilish darajasi 2,3 promillega kamaydi. Viloyatlar boʻyicha ham tugʻilish koeffitsiyentining kamayganligini koʻrish mumkin. Masalan, tugʻilish darajasi doimo yuqori boʻlib kelgan Surxondaryo (41,5%) va Qashqadaryo (40%) viloyatlarida ham bu holat ayni paytda birmuncha pasaydi. Ammo oldingi yillardagi sonlarga nisbatan tugʻilish surʻatlari oʻsdi, oʻlim koʻrsatkichlari kamaydi. Bu oʻtgan asrning 80 – yillaridagi yuqori tugʻilish surʻatlarining oʻziga xos demografik natijasi hisoblanadi. Keyingi 2–3 yil mobaynida tugʻilishning oʻsishi oʻsha yillarda tugʻilgan kishilarning oila qurishni boshlaganligidan dalolat beradi.

Oʻzbekistonda va uning mintaqalarida mustaqillik yillarida aholi migratsiyasida tub oʻzgarishlar sodir boʻladi. Yangi mustaqil davlatlarning tarkib topishi natijasida Oʻzbekistonda istiqomat qiladigan ayrim millat vakillari tarixiy vatanlariga qayta boshladilar. Shuningdek, Oʻzbekistonning turli mamlakatlar bilan xalqaro aloqalarining kuchayishi tufayli boshqa mamlakatlarga tub aholi vakillarining (oʻzbeklarning) mehnat migratsiyasi kuchayib bormoqda. 2003-yilda Oʻzbekistonda ham, viloyatda ham migratsiyaning saldosini manfiy boʻlgan. Qashqadaryo viloyatidan Oʻzbekistonning boshqa mintaqalariga (4629 kishi) va mamlakatlarga (1479 kishi) jami 6108 kishi migratsiya qilishgan. Ayni paytda

viloyatga O'zbekistonning mintaqalaridan (2612 kishi) va boshqa mamlakatlardan (163 kishi) 2775 kishi kelgan. Provordida ko'rsatgichlari bo'yicha migratsiya saldosi manfiy bo'lgan, ya'ni migratsion o'sish koeffitsiyenti (1000 kishi hisobiga) – 1,4 ni migratsion o'sish esa – 1 878 kishini tashkil etgan.

Qashqadaryo viloyatida aholi sonining ko'payishi bilan uning geografik tarqalishi hamda zichligi ham o'zgardi. 1926- yilda aholining o'rtacha zichligi har 1 km² ga 12 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1991-yilda bu ko'rsatgich 59,8 kishini, 2006-yilning boshida esa 58,8 kishini tashkil etdi (Aholi o'rtacha zichligining kamayishi mamlakatimizda yer kadastrining o'tkazilishi bilan bog'liq bo'lib, mamlakatimizning yer maydoni hozirgi paytda 448,9 ming km² ni tashkil etadi). Ammo, aholi zichligi viloyatning barcha tumanlarida bir xil emas. Aholi zichligi Kasbi va Qarshi tumanlarida har 1 km² ga 95 kishidan ziyodroq bo'lib, Shahrisabz tumanida 162,9 kishini, Yakkabog' tumanida 148,6 kishini, Koson tumanida 113 kishini, Kitob tumanida 108,6 kishini tashkil etadi. Ayni paytda Dehqonobod tumanida aholining o'rtacha zichligi har 1 km² ga 26,7 kishini, Mirishkor tumanida 27,2 kishi, Muborak tumanida 20,4 kishiga to'g'ri keladi. Albatta bu ko'rsatgichlar o'rtacha ko'rsatgichlar bo'lib, haqqoniy ahvolni aniq ifodalay olmaydi. Viloyatning Shahrisabz va Kitob tumanlarining tekislik qismida aholining o'rtacha zichligi har 1 km² ga 250 kishidan ziyodroq bo'lgani holda Muborak tumanida uning ma'muriy markazining yer maydoni va aholisi hisobga olinmagan taqdirda aholining o'rtacha zichligi atigi 12,6 kishini tashkil etadi.

Hozirgi paytda Qashqadaryo viloyatida 1046 ta qishloq, 12 ta shahar va 123 ta shaharcha (shahar tipidagi posyolka) mavjud. Viloyat aholisining umumiy soni 2006-yil ma'lumotlariga ko'ra 1 859,0 ming kishini, 2012-yilda 2830,4 ming kishini, shu jumladan shahar aholisi 1225,2 ming kishini, qishloq aholisi 1605,2 ming kishini tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyati aholisining tarkibida qishloq aholisi shahar aholisiga nisbatan doimo yuqori bo'lgan. Shuningdek, tabiiy o'sishi ham qishloqlarda ko'proq bo'lgan. 1990-yilda qishloqlarda 1210,7 ming kishi istiqomat qilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2000-yilda 1615,5 ming kishini, 2006-yilda esa 1859,0 ming

kishini (erkaklar 1213,8 ming kishi va ayollar 1209,9 ming kishi) tashkil etgan, ya'ni 2006-yilda qishloq aholisining salmog'i viloyat aholisining 75,4 %ini, 2012-yilda esa 56,7 %ini tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatida shaharlarning tarkib torishi va rivojlanishi o'ziga xos tarixiy – demografik xususiyatlarga ega. temir davrida (million yillar avval VIII – VI asrlar va undan keyingi davrlar) dehqonchilik maydonlarining kengayishi va aholi joylashishining ustivor shakli bo'lgan qishloqlarining ko'payishi bilan bir paytda shaharlar vujudga keladi va rivoj topa boshlaydi. 2700 yilligi nishonlangan Shahrisabz (qadimgi Kesh) va Qarshi (qadimgi Bolo, Naxshebolo, Shahshab, Nasaf; 1926 – 1937 yillarda Behbudiy) shaharlariga shu davrlarda asos solingan. Bu shaharlar nafaqat Markaziy Osiyodagi, balki, jahondagi eng ko'hna shaharlar jumlasiga mansub. Kitob shahri Kesh va Nasaf shaharlaridan keyinroq vujudga kelgan.

Qashqadaryo vohasidagi Shahrisabz, G'uzor va Kitob shaharlari faqat XX asrning turli yillarida “shahar”, “shahar pasyolkasi” va “qishloq” maqomlariga ega bo'lishgan.

XX asrning boshida Qarshi, Shahrisabz va G'uzor Qashqadaryo vohasidagi eng asosiy shaharlar bo'lgan. Ammo XX asrning yirigmanchi – o'ttizinchi yillarida sobiq Ittifoqda shaharlarni yangi talablar asosida tartibga solish amalga oshiriladi. Shu sababli mazkur talablarga javob bera olmasligi tufayli, Shahrisabz va G'uzor qishloq yoki shaharcha (shahar tipidagi posyolka) maqomiga ega bo'lgan. Shahrisabz faqat 1958 yilda yana shahar maqomiga ega bo'ldi. Qashqadaryo vohasida yangi shaharlarning vujudga kelishi XX asrning 70 – yillarida suv xo'jaligi, energetika, sanoat va transport qurilishi hamda qishloq xo'jaligi uchun yangi yerlarning o'zlashtirilishi bilan bevosita bog'liq. Bu davrda Qamashi, Muborak, Koson, G'uzor, Beshkent, Kitob, Yakkabog', Talimarjon shaharlari hamda yangi Nishon, Chiroqchi va Qashqadaryo shaharchalari vujudga keldi. Keyinroq Yangi Nishon va Chiroqchi tumani markazlari sifatida shahar maqomiga, Miroqi qishlog'i esa shaharcha maqomiga ega bo'ldi. 1989 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatidan keyin Dehqonobod va Yakkabog' ham shaharchalar qatoriga kiritildi.

Bu davrda viloyatda shaharlar soni 4 marta ko'paydi. Shaharlarning ko'payishi Qarshi cho'lidagi gaz konlarini yangi yerlarini o'zlashtirish, suv xo'jaligi qurilishi hamda tayanch markazlar tarmoqlarining barpo etilishi bilan bog'liq. Qarshi bosh kanalida nasos stantsiyalari va suv omborlarining qurilishi negizida Talimarjon shahri, gaz qazib olish va mamlakatimizda eng yirik gazni qayta ishlash zavodining barpo etilishi tufayli Muborak shahri, vujudga kelishi, ularning tuman hosil qiluvchi funktsiyalari va shahar hosil qiluvchi salohiyati bilan bog'liq mamlakatimizning mustaqillik yillarida Chiroqchi ham tumanga bo'ysunuvchi shahar maqomiga ega bo'ldi.

2006-yilning boshida Qashqadaryo viloyatining aholisi 2464,4 ming kishi bo'lib, shundan 605,4 ming kishini shaharliklar tashkil etadi. Binobarin, viloyatda urbanizatsiya (shaharlashuv) darajasi 24,7% ni tashkil etadi (1997 yilda – 26,3%).

Hozirgi paytda viloyatda 12 ta shahar va 4 ta shaharcha mavjud bo'lib, shaharlardan 1 tasi yirik, 2 tasi o'rta va 9 tasi mayda shaharlar toifasiga mansub. Yirik shaharlar toifasiga viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi bo'lgan Qarshi shahri kiradi. Qarshi shahrining aholisi 2006 yilning boshida 224,8 ming kishini tashkil etdi.

O'rta shahar toifasiga viloyatdagi 2 ta shahar mansub bo'lib, ularga viloyat shahar aholisining qariyb 26,4 % i (159,9 ming kishi) to'g'ri keladi. Viloyatning aholi soniga ko'ra o'rta shahar toifasiga mansub shaharlar orasida eng kattasi Shahrisabz shahridir. Bu tarixiy shaharning aholisi 89,9 ming kishidan iborat bo'lib, viloyatdagi shahar aholisining 15,3% ini tashkil etadi. Shahrisabz yaqin yillarda mamlakatimizning yirik shaharlari toifasiga kirish istiqboliga ega.

Viloyatdagi mayda shaharlar toifasiga Kitob (37,4 ming kishi), Yakkabog' (35,4 ming kishi), Qamashi 35,0 ming kishi), Muborak (24,5 ming kishi), G'uzor 23,3 ming kishi), Chiroqchi (19,9 ming kishi), Beshkent (16,4 ming kishi), Yangi Nishon (11,2 ming kishi), va Tallimarjon (8,6 ming kishi) shaharlari kiradi va ularda viloyat shahar aholisining atigi 9,0% ga yaqini yashaydi. Viloyatning 4 ta shaharchasida (Yakkabog', Miroqi, Dehqonobod, Nuriston) 39,6 ming kishi istiqomat qiladi. Shunday qilib, Qashqadaryo viloyatining yirik Qarshi shahrida

viloyatdagi shahar aholisining 37,1 % i, o`rta shaharlarida 26,4 % i va mayda shaharlarida 34,9% i istiqomat qiladi.

Aholining yoshi va jinsiy tarkibini o`rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Butun mamlakat va uning ayrim mintaqalari, viloyatlari, tumanlari, aholisining yoshi va jinsiy tarkibini aniq bilish mehnat resurslarining sonini hisoblab chiqishga, uning hozirgi soniga emas, balki kelajakda qanday o`sishini bilib olishga imkoniyat beradi. Shuningdek, aholining yosh va jinsiy tarkibi to`g`risidagi ma`lumotlar maktab o`quvchilari, maktabgacha tarbiya muassasalarining bolalari, pensionerlar sonini bilish iste`mol mollarini ishlab chiqish va boshqa maqsadlar uchun ham zarur. Aholining yosh va jinsiy tarkibi to`g`risidagi ma`lumotlarsiz yaqin yillardagi aholi dinamikasini hisoblab bo`lmaydi. Shu sababli aholining bu xildagi tarkibi tarmoqlari to`g`risidagi ma`lumotlar rejalashtirish organlari uchun ayniqsa zarur.

Qashqadaryo viloyati aholining yosh tarkibiga ko`ra o`ziga xos demografik vaziyatga ega bo`lib, u aholi tarkibida yoshlar salmog`ining muntazam ortib borishi va mamlakatimiz o`rtacha ko`rsatgichidan sezilarli darajada yuqoriligi bilan ajralib turadi. Biroq jahonda, shu jumladan mamlakatimizda kechayotgan demografik jarayonlardagi o`zgarishlar biroz keyinroq bo`lsada, Qashqadaryo viloyatida ham kuzatila boshlandi. Tug`ilishning kamayishi, XX asrning 80 – yillari oxirida muntazam kamayishi davriga o`tadi va aholi tarkibida yoshlar ulushining nisbatan kamayib borishiga zamin hozirlaydi. Mustaqillik yillarida mehnatga layoqatli yoshgacha bo`lganlarning jami aholi tarkibidagi ulushi 44,1% gacha qisqardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin – T., 1994
- 2 Karimov I. O`zbekiston: iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo`lida.-T., “O`zbekiston”, 1995.
- 3 Karimov I. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T. 1,-T., “O`zbekiston”, 1996.
- 4 Karimov I. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” – T. 1997. 198 – bet).
- 5 Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida. T.6, - T., “O`zbekiston”, 1998.
- 6 O`zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta`minlash to`g`risida”gi qonuniga sharhlar, (O`zR Mehnat vaziri SH.Ibragimov umumiy tahriri ostida; sharh mualliflari: A.Akbarov, A.To`rayev). Toshkent, “Sharq”, 2000.
- 7 O`zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Toshkent, “Sharq”, 1999.
- 8 Abdullayev S.I. Karimova U.Sh. Qashqadaryo shaharlari. “Nasaf ziyosi” jurnali. 2005-y. №4(5)
- 9 Bo`riyeva M.R. Demografiya asoslari. Ma`ruzalar matni.-T., 2001.
- 10 Bo`riyeva M.R. O`zbo`yekistonda oila demografiyasi.-T, 1997.
- 11 Bo`riyeva M.R. Tojiyeva Z. Saidov A. O`zbekistonning bugungi demografik vaziyati. O`zbo`yekiston geografiya jamiyati axboroti. 21- jild. T., 2000.
- 12 Berdiqulova M.T. Qashqadaryo viloyati shahar aholi manzilgohlarining rivojlanish xususiyatlari.- Zamonaviy geografiyaning muammolari. Res-ka ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Qarshi. 2010.
- 13 Bo`riy O. Ochilov A. XIX asr-XX asr boshida Qashqadaryo vohasi aholisi.- Zamonaviy geografiyaning muammolari. Res-ka ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Qarshi. 2010.
14. Egamova D. Tojiyeva Z. Saidova Z. O`zbekistonning janubiy hududlaridagi demografik holat (Qashqadaryo viloyati misolida) || Geografiya va qadriyatlar. T., 2001.
- 15 Zuhurov Y.T. Qashqadaryo viloyati qishloq aholisi va yangi shaharchalarning hududiy tarkibi. - Zamonaviy geografiyaning muammolari. Res-ka ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Qarshi. 2010.
- 16 Islomov A. Shahrisabz guruhi rayonlari aholisi. O`zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 21-jild. - T., 2000.
- 17 Murodova D.S. Qashqadaryo viloyatida aholi o`shining xususiyatlari.

- “Hozirgi zamon geografiyasi: Nazariya va amaliyot”.
Xalqaro ilmiy - amaliy konferensiya materiallari - T.,
2006.
- 19 Qayumov A.A.,
Utepova G. Mehnat resurslarini takror barpo qilishning demografik asoslari. O`zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 21-jild. - T., 2000.
 - 20 Qurbonov P.R. Januviy O`zbekiston shaharlari rivojlanishining ba`zi bir muammolari
 - 21 Qurbonov P.R. Kichik hududlarda urbanizatsiyaning rivojlanishi (Janubiy O`zbekiston qishloq tumanlari misolida). O`zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 37-jild. T., 2011.
 22. Nazarov S.H. Qashqadaryo viloyati - kelajakka intilayotgan mintaq. “O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi”, 2003 №7.
 - 23 Nugmanova A.A. O`zbekistonda mehnat resurslari prognozining demografik asosi. Hozirgi zamon geografiyasi: Nazariya va amaliyot. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. - T., 2006.
 - 24 Mavlonov A.M.. Cho`l sharotida ishlab chiqarish kuchlarining hududiy xususiyatlari va shaharlar rivojlanishi ||O`zbekistonda geografiyaning dolzarb muammolari. Samarqand, 2009
 - 18 Murodova D.S. Qashqadaryo viloyatida aholi ta`biy ko`payishining xususiyatlari. Geografiya fanining nazariy va amaliy masalalari. T., 2007.
 - 25 Ravshanov P. Qashqadaryo tarixi. - T., “Fan”, 1995.
 - 26 Saidova Z.A. Aholining jinsiy tarkibi. “O`zbekiston geografiya jamiyati
 - 27 Soliyev A.
Muydinov M.
Abdiyeva Z. Shahar joylaridagi yangi demografik jarayonlar. O`zbekiston geografiya jamiyati axboroti. 21- jild. T., 2000
 - 28 Tolmasov K.M. Migratsiya va uning omillari. “O`zbekiston”, 21-jild-T., 2000.
 - 29 Umrzoqova R. Aholi rivojlanishi va uning omillari. “O`zbekiston geografiya jamiyati axboroti”, 21-jild-T., 2000.
 - 30 Yangiboyev M. Yer yuzasining demografik sig`imini aniqlash. Toshkent-1995.
 - 31 Yangiboyev M. Aholi joylashuvi va rivojlanishining regional muammolari. T., “Fan” 1995.
 - 32 O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. 3-jild - T., Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
 - 33 O`zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida. -T., 1997

- 34 O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya. - T., Qomuslar Bosh Nashriyoti., 200 .
- 35 Qashqadaryo viloyati geografiyasi. – Qarshi, 1994.
- 36 Qashqadaryo viloyati pasporti. – Qarshi, 2005 – 2008.
- 38 Ата-Мирзаев О.Б. Принципы региональной политики народонаселения Узбекистана. Ўзбекистон география жамияти ахбороти.-Т., 1998, 19-жилд.
- 39 Ата-Мирзаев О.Б. Гентшке В. Муртазаев Р. Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана.-Т., “Университет”, 2002.
- 41 Борисов В.А. Демография. Учебник. - М., 1999.
- 42 Буриева М.Р. Рождаемость в Узбекистане - Т., 1991.
- 43 Валентей Д.И., Кваша А.Й. Основы демографии. Учебник - М., 1989.
- 44 Демографический ежегодник Узбекистана. 2003. - Т., 2004.
- 45 Максакова Л.П. Миграция населения Республики Узбекистан. - Т., 2000.
- 46 Мулладжанов И.Р. Народо-население Узбекской ССР - Т., 1967
- 47 Мулладжанов И.Р. Население Узбекской ССР. Справочник. - Т., 1989.
- 48 Кашкадарья - вчера, сегодня, завтра. Приложения к журналу «Экономическое обозрение», 1998, №4
- 49 Население Республики Узбекистан. Статистический сборник. – Т., 2006.
- 50 Салиев А.С. Файзуллаев М.А. Курбонов П.Р. Основные направления социально- экономического развития районов и городов Кашкадарьинской области. - Замонавий географиянинг регионал муммолари. Рес-ка илмий-амалий анжуман материаллари. Қарши, 2010
- 51 Сулейманов Р.Х. Древняя культура Южного Согда (VII в до н.э.- VII в.н.э) Самарканд, 1997.
- 52 Статистика населения с основами демографии.-М., 1990.
- 53 Статистический ежегодник – Йиллик статистика тўплами. Т., 2005.
- 54 Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-географические очерки). –Т., 1983.